

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI

MILLIY INSTITUTI

R.G.Safarova, N.R.Masharipova, N.Ch.Rustamov



*Mutafakkirlar va jadid ma'rifatparvarlarining tarbiyaga oid qarashlaridan
pedagogik jarayonlarda foydalanishga oid tavsiyalar*

Toshkent-2024

“Science and Innovation” nashriyoti

UO‘K: 37.022

KBK: 74.00

S 14

R.G.Safarova, N.R.Masharipova, N.Ch.Rustamov. Milliy tarbiyamiz xazinasidan durdonalar (Mutafakkirlar va jadid ma’rifatparvarlarining tarbiyaga oid qarashlaridan pedagogik jarayonlarda foydalanishga oid tavsiyalar). Uslubiy tavsiyanoma. – Toshkent: “Science and Innovation”, 2024. – 84 bet.

Mas’ul muharrir:

M.Quronov – pedagogika fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

X.M.Tojiboyeva - pedagogika fanlari doktori, professor.


G.R.Akramova - pedagogika fanlari doktori, dotsent.

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti Kengashining 2024-yil 30-avgustdagi 9/3.4-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

© R.G.Safarova, N.R.Masharipova, N.Ch.Rustamov.

Milliy tarbiyamiz xazinasidan durdonalar, 2024

© “Science and Innovation” nashriyoti, 2024



Ta'lim-tarbiya – bu bizning kelajagimiz, hayot-mamot masalasi. Shu bois, bu sohadagi islohotlarni kechiktirishga haqqimiz yo‘q. Qanchalik murakkab bo‘lmasin, maktab ta’limida poydevorni bugundan mustahkam qo‘yishimiz kerak.

Hech qachon unutmaylik, dunyodagi o‘tda yonmaydigan, suvda cho‘kmaydigan eng katta boylik bu – bilim va tarbiyadir.

Yangi O‘zbekistonning asosiy ustuni – bilim, ta’lim va tarbiya bo‘ladi!

Shavkat Mirziyoyev
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

MUNDARIJA

	Muqaddima	5
I	Mutafakkirlarning pedagogik meroslaridan tarbiya jarayonlarida foydalanish bo'yicha o'qituvchilar va ota-onalarga tavsiyalar	7
II	Jadid ma'rifatparvarlarining shaxs tarbiyasiga oid qarashlaridan uzluksiz tarbiya jarayonida foydalanish usullari	52
	Foydalanilgan adabiyotlar	79

Muqaddima

Ko'p asrlar davomida mutafakkir ajdodlarimizning aql-u tafakkuri ifodasi bo'lgan fikrlar, hikmatlar, o'gitlar, ta'limotlar bugungi kunda ma'naviy tarbiyaning asosiy vositasi sifatida xizmat qilishini amalga oshirilgan izlanishlarning natijalari yaqqol ko'rsatmoqda. Chunki mazkur didaktik vositalar o'quvchilarning ong ostiga tezkor ta'sir ko'rsatib, pozitiv dunyoqarashini rivojlantirishga ko'maklashadi.

Har bir inson ilm o'rganish, o'z dunyoqarashini boyitish, salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun o'qib-o'rganishi lozimligini, ilm o'rgangan inson jamiyatda o'z o'rini topishi mumkinligini ajdodlar ibрати va dono fikrlari yordamida o'quvchilar ongiga yetkazish, ularni shu ruhda tarbiyalash, o'qituvchilar va ota-onlar oldida turgan muhim vazifalardandir. Buning uchun o'quvchilar bilan bir qatorda ularning ota-onalarini ham pedagogik bilimlar, mutafakkir ajdodlarimizning tarbiyaga oid tarixiy tajribalari va ta'limotlaridan xabardorlik darajalarini oshirishi talab qilinmoqda.

Agar insonlar xulq-atvorida salbiy jihatlar keskin namoyon bo'la boshlasa, qadriyatlar o'z ahamiyatini yo'qotadi. Natijada jamiyat a'zolari orasida ma'naviy buzilishlar, salbiy og'ishlar vujudga keladi. Shuning uchun ham ta'lim mazmunida qadriyatlarning tarixiy ildizlari va bugungi kundagi ijtimoiy-madaniy taraqqiyot uchun muhim bo'lgan asoslar o'z ifodasini topishi lozim.

Hayotiy jarayonlar, jamiyatdagi ijtimoiy muammolar, shaxslararo kelishmovchiliklar, oilaviy ziddiyatlar va bugungi kunda ta'lim jarayoni subyektlari orasidagi qarama-qarshiliklarning asosiy sabablaridan biri jamiyat a'zolarida chidamlilik, sabr va bardosh, halollikning yetarlicha shakllanmaganligi bilan bog'liq. Ayniqsa, ota-onalar, o'qituvchilar hamda o'quvchilar orasida ma'naviy-tarbiyaviy keskinlik vujudga kelmoqda.

Ma'lumki, sharq xalqlari tarixida olimlar, tasavvuf adabiyoti namoyondalari bilan bir qatorda hukmdorlar ham ilm-u urfon taraqqiyoti, yoshlarni tarbiyalash bilan faol shug'ullanganliklariga guvoh bo'lamiz. Shunga ko'ra har bir mamlakat, har bir hududda yosh avlod tarbiyasi umumxalq harakati, umummilliy ishga aylangan. Bu harakatning yetakchilari, tashkilotchilari ham davlat boshliqlari, amirlar, mutafakkirlar hamda olim-u fuzalolar bo'lishgan. Mazkur jarayonda davlat va jamiyat o'z ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda yoshlarga pand nasihat qilib, zarur hayotiy bilimlar va o'gitlar berishgan.

Bugungi kunda Yangi O'zbekiston davlati va jamiyati ta'lim-tarbiya jarayoni oldiga milliy tarbiya an'analari bilan ma'nan sug'orilgan, axloq etiketlarini egallagan o'g'il va qizlarni tarbiyalash vazifasini qo'yimoqda. Bu vazifani muvaffaqiyatli ado etish uchun biz pedagoglar hamda ota-onalar shubhasiz ajdodlar merosiga tayanamiz.

Ushbu metodik tavsiyanomada o'qituvchi-pedagoglar va ota-onalar uchun yuqorida mulohaza qilingan tarbiya jarayonidagi muammolarni bartaraf etishda ko'mak beruvchi muhim pedagogik tavsiyalar hamda Milliy tarbiyamiz xazinasidan durdona namunalar taqdim etilgan.

**I BO‘LIM. MUTAFAKKIRLARNING TARBIYAGA OID
MEROSLARIDAN TARBIYA JARAYONLARIDA
FOYDALANISH BO‘YICHA O‘QITUVCHILAR VA OTA-
ONALARGA TAVSIYALAR**

Azal-azaldan mutafakkir ajdodlarimiz, ayniqsa, aql va fikr tarbiyasiga alohida e'tibor qaratganlar. Ular bolalarni solih farzandlar, bilimli insonlar qilib yetishtirishni aql tarbiyasidan boshlaganlar. Ota-bobolarimiz o'z qarashlarida aqlli inson hech qachon o'gir ahvolga tushib qolmasligini qayta-qayta ta'kidlab, har qanday sog'lom fikr aql zakovat mahsuli ekanini ilmiy jihatdan asoslaganlar. Shuning uchun ham yoshlarni nodonlar, mavhum fikrlovchilardan uzoqroq yurishga undaganlar. Bunday tarbiyaviy da'vatlarni pand-nasihat yo'li bilan amalga oshirganlar. Bu sohada shayx Sa'diy shunday yozgan edi: "Men qo'limdan kelganicha nodonlar suhbatidan qochish, johillardan uzoqlashish yo'lini ochishga intildim". Ko'rinib turibdiki, johillikning asl manbai fikrsizlik, johillik jamiyat uchun ham, uning a'zolari uchun ham xavfli ekanligi, johillar atrofdagilarga ziyon yetkazishini otanonalar va o'qituvchilar bolalar ongiga yoshlikdan boshlab yetkazishlari, ularni mantiqiy va tanqidiy fikrlashga undovchi didaktik vositalar va pedagogik chora-tadbirlarni kichik maktab yoshidan boshlab tizimli tarzda amalga oshirishlari lozim.

Har bir shaxsning aqlan barkamol bo'lishi, sog'lom fikrlash layoqatini egallashida kitob eng muhim manba va pedagogik vosita bo'lib xizmat qiladi. Mutolaa vositasida o'quvchi yoshlar nafaqat, ta'lim oladilar, balki, tarbiyalanadilar ham. Chunki kitoblarda taraqqiyparvar xalqning ko'p asrlik tarixiy tajribasi, aql-idrok va fikrati mujassamlashgan. Shuning uchun ham ular o'quvchilarni tafakkur qilishga, voqelikka real tanqidiy yondashishga undaydi. Kitoblar o'quvchilarga hayot saboqlarini, xalq donishmandligi va qahramonligining yuksak namunalarini taqdim etadi. Ularda xalqparvarlik, vatanparvarlik, fidoiylilik namunalari va eng oliy qadriyatlar, tushuncha hamda tasavvurlar o'z ifodasini topgan. Chunki har bir insonni tarbiyalaydigan, uni el ichida mashhur qiladigan xalq donishmandligining mahsuli bo'lgan bebaho merosidir. Har bir millatning yoshlari o'z xalqining

milliy qahramonlari, ulug‘ insonlari, mo‘tabar zotlariga ergashadi, ulardan ruhiy ma‘naviy quvvat, madad olib, ulug‘ maqsadlar sari intilishga kuch topadi. Agar har bir inson o‘z xalqiga ergashsa, uning yutuqlaridan faxrlanib harakat qilsa, unga ergashsa ulug‘likka erishadi. Chunki har bir avlodni tarbiyalaydigan, uning iste’dodini ro‘yobga chiqaradigan bu xalq hisoblanadi. Uning duosi-yu, tanqididir. Tasavvuf adabiyotining namoyondasi bo‘lgan bobokalonlarimiz J.Rumiy, A.Navoiy, Lutfiy, Z.M.Bobur va sharq mutafakkirlarining didaktik asarlarida eng oliy qadriyatlar ulug‘lanib, ularning inson kamolotini ta‘minlashdagi ahamiyati ochib berilgan. Yirik tasavvufshunos olim Qosim Anvar (1356 – 1433) “Hofiz devoni forsiy Qur’ondir” deb yozgan edi. Hozifning o‘zi ham bunday nisbatni quvvatlab shunday yozgan edi: “Men Hofiz, nimagaki erishgan bo‘lsam, hammasini erta tongdan turish, sihat-salomatlikka intilish va Qur’on davlatidan topdim”. (Hofiz buyuk tasavvuf adabiyoti namoyondasi bo‘lib, 1326-1389-yillarda Sherozda yashagan).

Ko‘rinib turibdiki, o‘tmishda ajdodlarimiz, ayniqsa, tasavvuf adabiyoti namoyondalari Qur’oni Karim va Hadisi shariflardagi ma‘naviy-axloqiy tarbiyaga oid qarashlar, o‘gitlarni she‘riy matnlar, hikmatli so‘zlar va iboralarga singdirib, o‘z zamondoshlari hamda kelgusi avlodlarga boy ma‘naviy-pedagogik meros qoldirganlar. Tasavvuf adabiyoti namoyonlari bilan o‘z fikrlarini turli qahramonlar tilidan badiiy hamda didaktik uslubda bayon qilganlar.

Sharqning ulug‘ mutafakkirlaridan biri, milliy qahramon Pahlavon Mahmud faoliyati o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishda muhim didaktik vositalardan sanaladi. Pahlavon Mahmudning javonmardlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, polvonlik sifatlari o‘quvchilar uchun pozitiv motivlarni yaratadi.

Pahlavon Mahmud (1247-1326) nafs tarbiyasi, jasurlik va jo‘mardlik tarbiyasi haqida o‘z fikrlarini qisqa hamda lo‘nda ruboiylar, bayt va hikmatlar shaklida bayon qilishga muvaffaq bo‘lgan. Masalan, “O‘z nafsiga kim bo‘lsa amir, uldir mard, hech kimsaga bo‘lmas asir” yoki “O‘tma sira mag‘lubni tepib, mardlik emas, tutsa qo‘lidan zabunni uldir mard”. Ko‘rinib turibdiki, alloma ajdodlarimiz nafs va mardlik tarbiyasiga alohida e‘tibor qaratib, o‘z nafsini yengib, atrofdagilarga muruvvat va g‘amxo‘rlik ko‘rsatganlarni mard, g‘olib, o‘zligini anglagan ulug‘ martabali inson sifatida ulug‘lab, yoshlarni ham shunday sifatlarni egallashga da‘vat qilganlar. Jumladan Pahlavon Mahmud bu haqda shunday yozgan edi: “Uch yuz kofi ko‘kni kelida tuymoq, dil qonidan bermoq falakka bo‘yoq, yoinki bir asr zindonda yotmoq, nodon suhbatidan ko‘ra yaxshiroq”.

Pahlavon Mahmud ulug‘ pirlardan ta‘lim-tarbiya topgan va javonmardlik tariqatini rivojlantirgan, “kuragi er ko‘rmagan” pahlavon hamda falsafiy, mazmunli ruboiylar yozgan ijodkor sifatida jahonga mashhur bo‘lgan. U Sharqning ko‘pgina davlatlarida pahlavonlik kurashlarida qatnashib hamisha g‘olib bo‘lganligi bir qancha tarixiy manbalarda keltirilgan. Pahlavon Mahmud o‘zining ham jismoniy, ham aqliy, ham g‘oyaviy (juvonmardlik tariqati) yuksakligi bilan nafaqat o‘z davrida, balki bugungi kunda ham xalq qahramonlari safining yetakchisi hisoblanadi.

Mashhur tarixchi va olimlarning ko‘plab ilmiy asar va tadqiqotlarida Pahlavon Mahmudning hayoti, ijodi, tariqati, pahlavonlik faoliyati, jo‘mardligi, xalqparvarligi borasidagi ko‘plab ma‘lumotlar bayon etilgan. Pahlavon Mahmud faoliyati haqida Muhammad G‘iyosiddinning “G‘iyos ul-Lug‘at”, J.Mahmudovning “Pahlavon Mahmud hayoti va adabiy merosining matniy tadqiqi”, I.Rahimov, K.Xudoyberganovlarning “Hazrati Polvon pir”, H. Xomidiyning “Ko‘xna Sharq darg‘alari”, N.X.Mallaevning “Xorazm Xayyomi”, X.Islomiyning “Alisher Navoiy va Xorazm avliyolari”,

E.Ochilovning “Pahlavon Mahmud” kabi asarlarda keng va qimmatli ma’lumotlar berilgan. Pahlavon Mahmudning pahlavonlik, donishmandlik, javonmardlik va ijodkorlik faoliyati o‘quvchilardan tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning pedagogik manbai sifatida allohida ahamiyat kasb etadi.

Ayniqsa Pahlavon Mahmud ruboiylaridagi ma’naviy-axloqiy qarashlar o‘quvchilarning axloqiy, ma’naviy, mantiqiy, tanqidiy fikrlashga doir bilimlarini oshiradi. Pahlavon Mahmud ijodini chuqur o‘rgan mutaxassis T.Jalolov shunday ta’kidlaydi: “Pahlavon Mahmud ruboiylarini o‘qigan kishi o‘zini qandaydir ma’naviy pokiza, ruhiy tetik va ulug‘vor his etadi, chunki bu ruboiylarga shu ruh singdirib yuborilgan”.

Pahlavon Mahmud o‘zining ruboiylarida Umar Xayyom ilgari surgan fikr va g‘oyalarning izidan borib, uning falsafasini rivojlantirishga erishgan. Xayyom ruboiylaridagi singari Pahlavon Mahmud ijodida ham insonning bu hayotda yashash maqsadi, kelish va borish manzili, bu dunyoning o‘tkinchiligini bilish va mardona, halol bo‘lib umr kechirishga intilish, chuqur fikrlash, tahlil qilishga va o‘zini anglashga chorlash g‘oyalari yetakchilik qiladi. Masalan quyidagi ruboiysida shunday deydi :

Yomonning sira hatlama ostonasidan,
E tushma tuzog‘iga tag‘in donasidan.
O‘q rostligidan bilib kamonni egri,
Ko‘r qochishini shitob uning xonasidan!

Bu jummalarni tahlil qilib qilib o‘quvchilarga tushuntirishda tanqidiy fikrlash zarurati tug‘iladi. O‘quvchilarga yomon insonlar bilan do‘st tutinishdan, uning dasturxonidan luqma yeyishdan saqlanish kerakligi, aks holda buning oqibati ayanchli bo‘lishini, yomon xulqli, yomon niyatli insonlardan o‘zini qanday saqlash, qanday uzoq tutish mumkinligini tushuntirish va bu borada ular bilan fikrlashish lozim. Bunday holatlardan saqlanishning dastlabki ma’naviy-tarbiyaviy sharti sifatida Pahlavon

Mahmud “yomonlik qilish haqida o‘ylamaslik, xayolga ham keltirmaslik lozim”ligi, “yomon so‘z va o‘ylarni tilda bayon etmaslik”ka da’vat etadi.

Desangki, yomonlik etmasin hech kimdan,

Yomon o‘yu yomon so‘z, yomon ishdan kech.

Insonlarni, ayniqsa, erkak kishining mard, qalbi toza, hamisha ko‘makka tayyor bo‘lmog‘i lozimligini va aksincha qo‘rqoq, pastkash, nomardlardan hech qachon el koriga yaraydigan, vatanni ko‘z qorachig‘iday asrab, himoya qiladigan inson chiqmasligini quyidagi ruboiysida ta’kidlaydi:

Qora tosh sira ham bo‘lmas lojuvard,

Toza qalbga yuqmas aslo changu gard.

Quloq solgin Puryoyvaliy so‘ziga,

Qo‘rqoqlardan biron chiqqanmidi mard!

Ushbu ruboiyni tajriba-sinov manbasi sifatida o‘quvchilarga taqdim etilganda, dastavval ruboiyda urg‘u berilgan “qora tosh”, “lojuvard”, “toza qalb”, “gard”, “qo‘rqoq”, “mard” so‘zlarining lug‘aviy ma’nolari, timsoli, xususiyati haqida ma’lumot beriladi tushunchalari izohlana. Insonlarga xos bo‘lgan qo‘rqoqlik, mardlik, toza qalblilik di.

Bu jihatdan Jaloliddin Rumiyning (1207-1273) bayt va ruboiylari ham katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Mutafakkir ajdodimiz Jaloliddin Rumi o‘zining “Ichingdagi ichingdadir” nomli asari va hikmatlarida yoshlar tarbiyasi uchun muhim bo‘lgan quyidagi qimmatli fikrlarni ilgari surgan. Jumladan, “Tilingdan oldin qalbingni tarbiya qil. Chunki so‘z qalbdan kelib, tildan chiqadi,” “Oddiy fikrla, oddiy qabul qil va oddiy yasha! Chunki haqiqat ham juda oddiydir”. Ko‘rinib turibdiki, sharq allomalari nodonlar suhbatidan uzoqlashishga yoshlarni da’vat qilib, bunday kishilarning suhbatlari ularning aqlini zabun qilib, o‘zini tubanlashtirishi, aqli shuurini o‘tmaslashtirib, o‘zini mashaqqatlarga duchor etishini qayta-qayta takrorlaganlar.

Ajdodlarimiz manmanlik, shuhratparastlik va xudbinlikka qarshi kurashib, o'zining ilm-u hunari bilan ulug'likka erishish lozimligiga alohida e'tibor qaratganlar. Mashhur tarixchi olim Muhammad Kamol shunday deb yozgan edi: "Men bilmoq uchun o'rgandim. Ular bilinmoq uchun". Har bir inson ilm o'rganish, o'z dunyoqarashini boyitish, salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun o'qib-o'rganishi lozimligini, ilm o'rgangan inson jamiyatda o'z o'rnini topishi mumkinligini ajdodlar ibрати va dono fikrlari yordamida o'quvchilar ongiga yetkazish, ularni shu ruhda tarbiyalash, o'qituvchilar va ota-onlar oldida turgan muhim vazifalardandir. Buning uchun o'quvchilar bilan bir qatorda ularning ota-onalarini ham pedagogik bilimlar, mutafakkir ajdodlarimizning tarbiyaga oid tarixiy tajribalari va ta'limotlaridan xabardorlik darajalarini oshirishi talab qilinmoqda. Mazkur o'rinda, ilmiy pedagogik jamoatchilik bilan bir qatorda, telepedagogikaning imkoniyatlaridan ham keng ko'lamda foydalanishni yo'lga qo'yish taqozo qilinmoqda. Ajdodlarimizning ta'lim-tarbiya sohasidagi buyukligi shundaki, ta'lim-tarbiya masalalari bilan nafaqat, allomalar va murabbiylar, balki, hukmdor ya'ni davlat rahbarlari ham muntazam shug'ullanganlar. Jumladan, taniqli davlat rahbari, sarkarda va ma'rifatparvar Abdullaxon II-ning (1533 – 1598) quyidagi fikrlari bugungi kunda ham alohida pedagogik ahamiyatga ega. "Ta'bni bekorga o'tkazmanglar, uni mashq qildirish kerak. Dangasalik ta'bning bo'shashiga sabab bo'ladi va zehnni o'tmaslashtiradi".

Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, bugungi kunda aksariyat o'quvchilarda yalqovlik, o'qishni istamaslik, darslarga qatnashmaslik holatlari uchramoqda. She'rlar, tez aytishlarni yod oladigan, mushoiralar, bahru baytlarda ishtirok etadigan o'quvchilarning soni kamayib ketmoqda. Bularning barchasi o'quvchilar zehning o'tmaslashuviga sababchi bo'lmoqda. Ajdodlarimiz zehn tarbiyasiga alohida e'tibor qaratganlar. Tarbiyaning ushbu yo'nalishi bilan nafaqat ustoz murabbiylar, balki, ota-

onalar, enagalar shug‘ullanganlar. Mutafakkirlar zehn tarbiyasini turli usullar va vositalaridan tizimli tarzda foydalanganlar. Bola oldiga uni mantiqiy fikrlashga undovchi muammoli savollar qo‘yish, tahlil-mutolaa ya’ni o‘qilgan har bir matnni chuqur tahlil qilgan holda qayta-qayta o‘qib o‘rganish, kitobxonlik, mashqlantirish, mushoira, bahru bayt, mustaqil izlanish, tanqidiy o‘rganish, tanqidiy baholash, tanqidiy tahlil, Suqrotona savol-javob kabi didaktik shakllar va metodlardan foydalangan holda o‘quvchilarning zehni charxlaganlar. Mutafakkir ajdodlarimiz, ayniqsa, tasavvuf ta’limoti namoyondalari vatanparvarlik tarbiyasi, xalqparvarlik, elsevarlik tarbiyasi bilan uyg‘un tarzda shug‘ullanganlar. Xalqi hamda vatanini sevgan insonlarni xalq ham, vatan ham sevib ulug‘lashishini tarixiy tajribalar yaqqol ko‘rsatmoqda. O‘z xalqi va vatanini sevgan inson uning ravnaqi, baxtu saodati, tinchligi va farovonligi uchun sidqidillik bilan xizmat qiladi. O‘z yurtini butun dunyoga tanitadi. O‘zbek xalqi tarixida bunday misollar juda ko‘pligini o‘quvchi yoshlar ongiga singdirish orqali ularda, o‘zlikni anglash, milliy g‘urur tuyg‘usini rivojlantirib, elshunoslik, o‘z xalqi va ajdodlarining ezgu amallarini o‘rganish, undan ibrat olish, tarixiy tajribalarni o‘zlashtirish orqali o‘zining ma’naviyatini boyitish motivlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Qoraqalpoq xalqining ardoqli shoiri Berdimurod Qarg‘aboy o‘g‘li Berdaq (1827-1900) shunday yozgan edi: “Xalqimni meni yaxshi ko‘rishining asosiy sababi, mening xalqqa bo‘lgan farzandlik muhabbatim, mening xalqni yaxshi ko‘rishimning asosiy sababi esa xalqning menga onalik muhabbatidir” deb yozgan edi. Darhaqiqat, Berdaq 200 yildan beri xalq muhabbati va uning e’zoz e’tirofiga sazovor bo‘lib kelmoqda. Uning qoraqalpoq va o‘zbek xalqi oldidagi xizmatlari va ushbu xalqqa bo‘lgan muhabbati qadrlanib, O‘zbekiston Respublikasi prezidentining “Berdaq tavalludining 200 yillik yubileyini nishonlash haqida”gi Qarori qabul qilindi. Bunday tadbirlar insonlarning xalq oldidagi

xizmatlari hech qachon unutilmasligini, o'quvchi hamda talabalarga anglatishga xizmat qiladi.

Ko'p asrlar davomida mutafakkir ajdodlarimizning aql-u tafakkurining ifodasi bo'lgan fikrlar, hikmatlar, o'gitlar, ta'limotlar bugungi kunda ma'naviy tarbiyaning asosiy vositasi sifatida xizmat qilishini amalga oshirilgan izlanishlarning natijalari yaqqol ko'rsatmoqda. Chunki mazkur didaktik vositalar o'quvchilarning ong ostiga tezkor ta'sir ko'rsatib, pozitiv dunyoqarashini rivojlantirishga ko'maklashadi. Mutafakkir ajdodlarimiz birinchi navbatda, yoshlarni sabrli bo'lishga undaganlar. Donishmandlardan biri shunday deb yozadi: "Sabr qil, oldinda shunday bir cho'qqi borki, unga faqat yuki yengillargina chiqa oladilar". Bu fikrlar yuksalish va insonning o'zi ko'zlagan maqsadga erishishini ta'minlaydigan cho'qqi mavjudligini anglatadi. O'qituvchilar dars va darsdan tashqari tarbiyaviy jarayonlar, sinf soatlarida o'quvchilarga mazkur fikrlarning mazmun-mohiyatini tushuntirib borishlari, ularni sabrli, bardoshli, maqsad sari intiluvchan qilib tarbiyalashlari, bu sohada ota-onalar bilan ham yaqin hamkorlik o'rnatishlari maqsadga muvofiq, buning uchun ularning ajdodlarimiz merosi va pedagogik va psixologik bilimlardan xabardorlik darajasini oshirish maqsadida ular bilan muntazam davra suhbatlari, seminarlar, individual muloqot vaziyatlarini tashkil etishlarini nazarda tutish tavsiya qilinadi. O'quvchilar bilan maktab ta'limining dastlabki bosqichidan boshlab jo'mardlik tarbiyasini amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Bizning ajdodlarimiz azal-azaldan jo'mardlik tarbiyasiga alohida e'tibor qaratganlar. Didaktik xarakterdagi va badiiy asarlarda jo'mardlik tarbiyasiga oid qimmatli fikrlar berilgan. Ushbu masalaga xalq og'zaki ijodida ham ustuvorlik berilgan. Allomalar va xalq donishmandlari jovanmardlikning belgilarini ham ko'rsatib o'tishga muvaffaq bo'lganlar. Ular "birovning omonatiga xiyonat qilmaslik, birovning ishi chiqqanda hojatini chiqarish, qilingan yaxshilikni

minnat qilmaslik, do'stlikni hech narsaga almashmaslik, birovning sirini boshqalarga oshkor qilmaslik, mardlik, oliy himmatlilik" kabilar. Bunday sifatlar ayniqsa, o'smir yoshdagi o'g'il bolalar uchun zarur bo'lib, bugungi kunda mazkur sifatlarga ega bo'lgan insonlar, ayniqsa, erkaklarning tobora kamayib borayotgani uchun jamiyat a'zolarining milliy ma'naviy qiyofasiga putur yetib, shaxslararo munosabatlarda keskinlik vujudga kelmoqda. Firibgarlik, lafzsizlik, badnafslilik, birovning haqqiga xiyonat qilish, nafsga berilish, ochko'zlik, boshqalarning haqidan qo'rqmaslik, birovning mulkini zo'ravonlik orqali o'zlashtirish, meshchanlarcha hayot tarziga moyillik, fahsh kabi ishlarga ruju qo'yish kabi illatlar ko'paymoqda. O'quvchi-yoshlarning bunday illatlarga duchor bo'lgan kishilar ta'siriga tushib qolmasliklari uchun ma'naviy-axloqiy tarbiyaning ko'lamini kengaytirish, buning uchun zarur bo'lgan madaniy muhitni vujudga keltirish ehtiyoji kuchaymoqda. Chunki o'quvchilarda jovanmardlik sifatlarini tarbiyalashda san'at, sport, kitobxonlikdan foydalanish natijasida samaradorlikka erishish mumkin. Chunki san'at namunalarini o'zlashtirish, kitob mutolaasi o'quvchilarning hissiy emotsional sohasiga ta'sir ko'rsatsa, sport ularning irodasini chiniqtirib, jasoratli bo'lish, yomon xatti harakatlardan uzoqlashishga undaydi. Ushbu o'rinda o'qituvchilar, ota-onalar bilan hamkorlikda o'quvchilarning qiziqishlarini qo'llab quvvatlashlari, pozitiv harakatlarini muntazam rag'batlantirishlari lozim. Jovanmadrlikning muhim belgilaridan biri atrofdagilarga yaxshilik qilishdan iborat. Shuning uchun ham ota-onalar hamda o'qituvchilar o'quvchilarni muntazam tarzda yaxshilik qilishga da'vat etishlari lozim. Chunki Hadisi sharifda ta'kidlanganidek, "Birovlarga yaxshilik qilgan odam, eng avvalo, o'ziga yaxshilik qilgan bo'ladi". Bu haqda Luqmoni Hakim shunday degan: "Qo'lingdan kelguncha yaxshilik qil va qilgan yaxshiligingni unut. Minnat jo'mardlik odobiga to'g'ri kelmaydi".

Bugungi kunda ta'lim muassasasida ham jamiyatda ham shaxslararo munosabatlarning keskinlashuvida o'quvchilar, o'qituvchilar, umuman, muloqot jarayoni subyektlarining nutq odobi, muomala madaniyati qoidalariga amal qilmayotganliklari sabab bo'lmoqda. Donishmand xalqimiz nutq odobi, tilga ehtiyotkor bo'lish haqida ham o'zlarining qimmatli o'gitlarini qoldirganlar. Jumladan, "Odamlar dushmanga og'izlaridan yo'l beradilar. U esa aqllilarini o'g'irlab ketadi". "Men aytgan so'zimni qaytarib olishdan ko'ra, aytmagan so'zni og'zimdan chiqarmaslikka harakat qilaman." "Men o'z foydasini ko'zlab aytgan, so'zi zarar bergan va o'zini halok bo'lgan odamga hayron qolaman". "Og'zimdan chiqmagan so'zim qulimdir, aytganim esa xojam". "Men aytmagan so'zimdan hech vaqt pushaymon bo'lmaganman, aytganimdan esa juda tez-tez pushaymon bo'laman". Turli davrlarda donishmand ajdodlarimiz tomonidan ushbu qimmatli fikrlar bugunki kunda o'quvchilarda o'zi aytadigan har bir so'zning ma'nosiga tanqidiy, tahliliy nuqtai nazardan yondashib, unga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni targ'ib qiladi. So'z zukkoligi mutafakkir ajdodlarimizning shaxsiy-kasbiy sifatlaridan eng afzali hisoblangan. Ular har doim aytgan so'zlarining qadrini baland tutganlar va yosh avlodlarda xuddi shunday sifatlarni shakllantirishga harakat qilganlar. Ota bobolarimiz yoshlar orasida har doim ehtiyotkorlik va nafosat bilan so'zlashni targ'ib qilganlar. Shuning uchun o'zbeklarda lutf hamda notiqlik san'ati rivojlangan. Mutafakkir ajdodlarimiz ilm egallash ehtiyoji tufayli turli mamlakatlar va shaharlarda bo'lib, ko'p millatli muhitda yashab, ko'p tillarda muloqot va ijod qilish imkoniyatiga ega bo'lishlariga qaramasdan, o'z ona tillari bo'lgan o'zbek tili ya'ni turkiy tilning sofliqi uchun kurashganlar. Ushbu tilning imkoniyatlarini ko'proq namoyish qilish bilan mazkur tilning so'z boyligini o'zlashtirishga muntazam harakat qilganlar. Lutfiy, A.Navoiy, Ogahiy, Bobur, jadid adabiyotining yirik namoyondasi Avaz O'tarlarning ijodiy

faoliyati va sa'y-harakatlari buning yaqqol misol bo'la oladi. Ular inson har narsadan ko'ra ko'proq o'z tili tufayli baloga yo'liqlishini ham ta'kidlashganlar. Shuning uchun ham "indamaslik, bema'ni suhbatlardan ko'ra yaxshiroq" degan hikmatni o'z shogirdlariga eslatib turganlar. Ushbu hikmatlarni darsliklardagi o'quv materiallari mazmuniga singdirish, sinf soatlari va tarbiyaviy jarayonlarda o'quvchilar ongiga yetkazish orqali tilga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish hamda kommunikativ madaniyatni shakllantirish mumkin.

Mutafakkir ajdodlarimiz mehnatsevarlik, yoshlarning intilishlarini barqarorlashtirib, ularni ezgu amallarni bajarishga safarbar qilishi haqida ham o'zlarining qimmatli fikrlarini ham qoldirganlar. Donishmandlardan biri shunday so'zlarni yozgan edi: "Inson uch narsaga intiladi. Yaxshi yashash, insonlar orasida yuksak mavqeyiga ega bo'lish, savob amallarni bajarish". Ushbu narsalarga halol mehnat tufayli erishilishini ko'rsatib o'tganlar. Ular o'z qarashlarini hadislariga tayangan holda davom ettirib "halol mehnat bilan davlat to'plash, qo'lga kiritilgan davlatni saqlay bilish, isrofga yo'l qo'ymasdan davlatini o'zi, oilasi hamda aka-ukalari uchun xarj qilish, mumkin qadar o'zini ziyon ishlardan tiyish, halol yashash uchun zamin yaratishini qayta-qayta uqtirganlar". Shu o'rinda buyuk mutafakkir Abu Nasr Farobiyning "hayot varaqlari kishi amalining sahifalaridir. Unga eng yaxshi ishlargina yozib qoldiriladi" degan hikmatli fikrlari bugungi kunda o'quvchi va talaba yoshlarni ezgu amallarni bajarishga safarbar qiluvchi katta ma'naviy kuchga ega. Faridun farzandiga nasihat sifatida quyidagilarni ta'kidlagan: "Kishi o'zining oliy himmati bilan azizdir. Mard shunday kishiki, gapirmasdan turib qilmoqchi bo'lgan ishini ado etadi. Nomard kishi gapirib turib ham ado qilmaydi" deya yosh avlodlarga saboq beruvchi fikrlarni ilgari surgan. U o'z o'gitlarini davom ettirib, "odamlarni o'zidan

uzoqlashtirmaslikning chorasi chidam va muloyimlik, mushkul narsalarni ham chidam va muloyimlik bilan hal qilsa bo‘ladi” deb yozgan edi. Bugungi kunda yosh avlodni chidamli, bardoshli xushmuomalali, xushxulqli qilib tarbiyalash uzluksiz ta’lim muassasalari hamda ota-onalarning muhim vazifalaridan. Ma’lumki, bugungi kunda o‘smir yoshdagi o‘quvchilarda ham talaba yoshlarda ham chidam sabr bardosh, qiyinchiliklarga nisbatan hozirjavoblik, moslashuvchanlik, halimlik, atrofdagilarga xushmuomalalik bilan munosabatda bo‘lish tajribasining yetarli darajada shakllanmaganligini kuzatish mumkin. Ular kundalik hayotiy jarayonlarda jamiyatdagi keskinlik, shaxslararo kelishmovchiliklar, oilaviy ziddiyatlar va bugungi kunda ta’lim jarayoni subyektlari orasidagi qarama-qarshiliklarning asosiy sabablaridan biri jamiyat a’zolarida chidamlilik, sabr va bardosh, halollikning yetarlicha shakllanmaganligi bilan bog‘liq. Ayniqsa, ota-onalar, o‘qituvchilar hamda o‘quvchilar orasida keskinlik vujudga kelmoqda. Ma’lumki, sharq xalqlari tarixida olimlar, tasavvuf adabiyoti namoyondalari bilan bir qatorda hukmdorlar ham ilm urfon taraqqiyoti, yoshlarni tarbiyalash bilan faol shug‘ullanganliklariga guvoh bo‘lamiz. A.Temur va ko‘plab temuriy shahzodalar, Bobur va boburiylar, Xorazm xoni Feruz va taniqli ma’rifatparvar, jadidchilik harakatining peshqadam vakillaridan Islomxo‘ja kabilarning ma’rifiy faoliyati bunga misol bo‘la oladi. Jumladan, shox Xusrav yaxshi, namunali o‘g‘lonlarning quyidagi sifatlarga ega bo‘lishi haqida shunday yozgan edi: “Tartib-intizomga rioya qiladigan, or-nomusini ko‘z qorachig‘iday saqlaydigan, jamiyatda oliy mavqeni ishg‘ol etish uchun hamisha jon kuydiradigan o‘g‘il yaxshi o‘g‘ildir”.

Bugungi kunda O‘zbekiston davlati va jamiyat ta’lim-tarbiya jarayoni oldiga shunday o‘g‘il va qizlarni tarbiyalash vazifasini qo‘ymoqda. Bu vazifani muvaffaqiyatli ado etish uchun biz pedagoglar, shubhasiz ajdodlar merosiga tayanamiz.

Insoniyat o'z tarixiy taraqqiyotining barcha bosqichlarida o'qituvchi-o'quvchi munosabatlariga e'tibor qaratib kelgan. O'qituvchilar har doim o'quvchilarga bilim berish bilan bir qatorda ularning shaxsiy rivojlanishiga ham g'amxo'rlik qilganlar. Shaxs va unga xos bo'lgan sifatlar bevosita muloqot jarayonida shakllanadi va rivojlanadi. O'qituvchi o'quvchilarga bilim, ko'nikma, malakalar, tayanch va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish bilan bir qatorda ularda mehnatsevarlik, mas'uliyatlilik, tolerantlik, o'zlikni anglash, milliy g'ururga ega bo'lish kabi ko'plab ijobiy sifatlarni ham tarbiyalay olishi kerak. Chunki bunday sifatlar har bir shaxsning jamiyatda munosib o'rin egallashi va ijtimoiy munosabatlarga kirishishi uchun zarur hisoblanadi. O'qituvchi-o'quvchi munosabatlari qadimgi (antik) davr faylasuflarining ham e'tiborini o'zida jalb qilib kelgan. Suqrot, Demokrit, Platon kabilar o'z falsafiy qarashlarining tarkibiy qismi sifatida o'qituvchi-o'quvchi munosabatlarini o'rganganlar. O'z navbatida birinchi, ikkinchi Renessans davrida yashab o'tgan Sharq allomalari Abu Rayhon Beruniy, ibn Sino, Farobiy, G'azzoliy, Tusiy, Shayx Xovandi Tohur, Bahouddin Naqshband, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiylar ham ustoz-shogird munosabatlarining ayrim jihatlari, ayniqsa ular orasidagi hamkorlikning xususiyatlarini o'rganganlar.

Zamonaviy oliy pedagogik ta'lim oldiga qo'yilgan muhim vazifalardan biri, madaniy-ma'naviy axloqiy jihatdan rivojlangan o'qituvchi shaxsini tayyorlashdan iborat. Shundan kelib chiqqan holda, bo'lajak o'qituvchi shaxsining qadriyatli yo'nalishlarini refleksiya asosida aniqlash, alohida dolzarblik kasb etmoqda. Chunki refleksiya bo'lajak o'qituvchi shaxsini ma'naviy-axloqiy, kasbiy jihatdan tarbiyalashning muhim omili hisoblanadi. Madaniy globallashuv sharoitida zamonaviy O'zbekiston jamiyati har bir shaxsning ma'naviy-kasbiy jihatdan kamol topishidan manfaatdor. Bo'lajak o'qituvchi uchun ma'naviy-ijodiy, madaniy-axloqiy, kasbiy jihatdan

rivojlanish o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Chunki ijtimoiy munosabatlar vaziyatida o'qituvchining tolerantligi, insonparvarliligi, rahm-shafqatliligi, ijodkorligi uning kasbiy ijodkorligi uchun nihoyatda zarur bo'lib, ta'lim jarayonining mazmun-mohiyatini belgilaydi.

Mazkur fundamental asoslarning ilk ildizlari eramizdan oldingi yunon faylasuflari tomonidan yaratilgan bo'lsa, Avesto, Qur'oni Karim, Hadislar, va Sharq pedagogik tafakkurining ifodasi bo'lgan durdona asarlarda mutafakkir ajdodlarimiz tomonidan muayyan darajada rivojlantirilgan. Jumladan, Aflotun ta'lim-tarbiya jarayonida tafakkurning ahamiyati haqida quyidagi hikmatli fikrlarni bayon qiladi: "Tarbiya uch narsaga ehtiyoj sezadi: iste'dodga, ilmga, mashqqa" Bu o'rinda o'qituvchining mantiqiy fikrlash layoqatiga egaligiga alohida e'tibor qaratilgan.

Farobiy esa o'qituvchi va o'quvchi muloqotining ahamiyati kasbiy mahoratning ta'lim jarayonida tutgan o'rni haqida fikr yuritib quyidagilarni bayon qilgan: "Ta'lim faqat so'z va o'rgatish bilangina bo'ladi. Tarbiya esa amaliy ish, tajriba bilan bo'ladi".

Beruniy esa ilm dargohiga kirgan talabaning sog'lom tafakkur yuritishga qalb pokligiga erishishga da'vat qilgan: "Ilm dargohiga kirar ekansan, qalbing kishini ozdiruvchi illatlardan, odamni ko'r qilib qo'yadigan holatlardan, chunonchi, qotib qolgan urf-odatlardan, hirsdan, raqobatdan, ochko'zlikni quli bo'lishdan ozod bo'lmog'i darkor".

Har bir shaxs madaniy, ma'naviy, axloqiy jihatdan rivojlanish ehtiyojiga ega bo'lishi lozim. Aks holda u kasbiy bilimlarni o'zlashtirish, uni amaliy faoliyatida qo'llashda yutuqlarga erisha olmaydi. Kasbiy rivojlanish ehtiyoji shaxsning intilishlari va motivlari ko'lamini belgilaydi. Natijada, talabalar mustaqil bilim olish va o'z-o'zini anglash ko'nikmasiga ega bo'ladilar. Ular o'z-o'zlarini va ichki olamlarini boyitadilar. O'quv faoliyatlarini muntazam korreksiyalashga muvaffaq bo'ladilar. Natijada

o‘zlarining shaxsiy kasbiy sifatlarini takomillashtirishga muvaffaq bo‘ladilar. Talabalarning tayanch ehtiyojlari bilimlarni integratsiyalash uchun asos bo‘ladi. Bilish faoliyatlarining ko‘p qirraliligi va yaxlitligi ta‘minlanadi. Natijada ular o‘zlari va atrofdagilarni o‘rgana boshlaydilar. Ta‘lim jarayonining samaradorligini ta‘minlash uchun uni shaxs ma‘naviyatini rivojlantirishga xizmat qiladigan asoslarini muntazam takomillashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Buning uchun o‘quv dasturlaridagi mavzular talabalarda yuqori darajadagi ma‘naviy bilimlar tizimini taqdim etishga xizmat qilishini ta‘minlash talab qilinmoqda.

Chunki mazkur bilimlar talabalarning ma‘naviy olamini shakllantirish va muntazam boyitishga xizmat qiladi. Oliy pedagogik ta‘limning asosiy muammosi talabalarda pedagogik faoliyat tajribasini shakllantirish bilan bog‘liq. Bunda birinchi navbatda o‘qituvchining korreksiyalash faoliyatini shakllantirishga e‘tibor qaratiladi. O‘quvchi yoshlarning qadriyatlarini tanlash va o‘z faoliyatlariga singdirishlarida o‘qituvchining pozitiv va savodli ta‘sir ko‘rsatishi ularning ma‘naviyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Natijada, yuksak ma‘naviyatli shaxsning ma‘naviy qiyofasi vujudga keladi.

Bo‘lajak o‘qituvchilar o‘zlari o‘zlashtirgan qadriyatlar yordamida jamiyat a‘zolariga nisbatan qadriyatli munosabatda bo‘lish tajribasini egallaydilar. Mazkur tajriba yordamida ularning ijtimoiy mavqeyi va ijtimoiy vaziyatlar o‘zgaradi. Bo‘lajak o‘qituvchilar o‘z hayotiy faoliyatlarda qaysi qadriyatlar tayanishlari bilan bog‘liq holda bo‘lajak o‘qituvchilarning ma‘naviy qiyofasi va kasbiy kompetensiyalari, hayotda qaysi qadriyatlarga amal qilishlari, ma‘naviy yuksalish ehtiyojlari aniq namoyon bo‘ladi. Bu esa ularning ma‘naviy qiyofasini belgilaydi. Bugungi kunda bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish ehtiyojlari kuchaymoqda. Mazkur ehtiyoj O‘zbekiston Respublikasi hukumati

tomonidan qabul qilingan qarorlar va me'yoriy hujjatlarda ham o'z ifodasini topgan.

Jamiyat bo'lajak o'qituvchining yuksak kasbiy bilim va madaniyatga ega bo'lishini talab qilmoqda. Chunki bunday mutaxassislar axloqiy jihatdan maqsadga muvofiq bo'lgan qarorlarni qabul qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ular muntazam tarzda o'z imkoniyatlari va layoqatlarini rivojlantirish ko'nikmasini namoyon etadilar. Ma'naviy rivojlanish ehtiyojiga ega bo'lgan bo'lajak o'qituvchilar o'zlarining aynan ma'naviy rivojlanish imkoniyatlarini namoyon eta oladilar. Ular umuminsoniy qadriyatlarni o'z kasbiy faoliyatlarining manbai sifatida baholaydilar.

Shuning uchun ham muntazam tarzda o'z faoliyatlarini takomillashtirish va ijodiy faoliyatlari mahsulini yaratishga intiladilar. Bunday talabalarda ma'naviy kreativ sifatlar yuqori darajada shakllangan bo'ladi. Shuning uchun ham muntazam tarzda o'z-o'zlarini rivojlantirish motivlariga ega bo'ladilar. Mazkur talabalarning aksariyat qismi o'z kasbiy mahorati – "akme"ga intiladilar. Bugungi kunda pedagogikaga oid aksariyat tadqiqotlarda ma'naviy-axloqiy, ijodiy rivojlanish motivlariga ega bo'lgan shaxsni shakllantirishga ustuvor o'rin ajratilmoqda. Bunday yoshlarni rivojlantirish ta'lim strategiyasini belgilaydi. Shuning uchun ham bo'lajak o'qituvchilarni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish yanada dolzarblik kasb etmoqda. Bunday pedagoglarni tarbiyalash, ularning kasbiy faoliyatlarini shakllantirish omillarini aniqlashni taqozo etadi.

Shuning uchun ham biz o'z ishlarimiz davomida pedagogik madaniyatshunoslik va aksiologik g'oyalarga tayanishga harakat qildik. Shuning uchun ham talabalarning tayanch kompetensiyalarini shakllantirishda qadriyatlarning ahamiyatlilik darajasini aniqlash maqsadida ular faoliyatini muntazam refleksiylash alohida ahamiyatga ega.

Aksiologik yondashuv doirasida o‘zbek xalqining tayanch qadriyatlari nazariy jihatdan o‘rganiladi. Ijobiy yaratuvchilikka oid qadriyatlar doirasida hayotiy muammolarni refleksiylash faoliyati shakllantiriladi va amalga oshiriladi. Qadriyatlarni maqsadga muvofiq holda tanlash natijasida bo‘lajak o‘qituvchilar faoliyatida qadriyatli yo‘nalishlar shakllanadi. Bu esa talabalarning ma’naviy-axloqiy va ijodiy jihatdan rivojlanishiga samarali ta’sir ko‘rsatadi. Ularning istiqboldagi pedagogik faoliyati qadriyatli ahamiyat kasb etadi. Bo‘lajak o‘qituvchining ma’naviy-ijodiy jihatdan shakllanishi ularda ma’naviy-axloqiy va ijodiy sifatlarning uyg‘un tarzda shakllanishiga bog‘liq. Natijada, bo‘lajak o‘qituvchilarda qadriyatli ong, qadriyatli munosabat, qadriyatli xulq-atvor tajribasi tarkib topadi. Pedagogik aksiologiyaning nazariy asoslari bo‘lajak o‘qituvchi shaxsining tayanch sifatlarining tarkibiy qismini tashkil etadi. Bunday vaziyatda qadriyatlar bo‘lajak o‘qituvchi shaxsiy-kasbiy faoliyatining mazmun-mohiyatini tashkil etadi. Ular qadriyatlarga tayangan holda istiqboldagi kasbiy faoliyatlari rivojlanish trayektoriyasini belgilaydilar. Chunki qadriyatlar bo‘lajak o‘qituvchi shaxsiy – kasbiy sifatlarining asosiy tarkibiy qismini tashkil etadi.

Talabalar faoliyatiga pozitiv, yaratuvchilik xarakteridagi qadriyatlarni ko‘proq singdirish bugungi kunda davlat va jamiyat talablarida yaqqol ko‘rsatib berilgan. Qadriyatlar bilan bog‘liq muammolar aksiologiya bilan bir qatorda pedagogika, psixologiya, sotsiologiya kabi fanlarining ham asosiy tadqiqot obyekti toifasiga kiradi. Shuning uchun ham pedagogika sohasidagi tadqiqotlarni aksiologik, madaniyatshunoslik, akmeologik yondashuvlar orqali amalga oshirish orqali bo‘lajak o‘qituvchilarning ma’naviy qiyofasini shakllantirish hamda ularni madaniy, shaxsiy-kasbiy jihatdan kompleks rivojlantirish imkoniyati vujudga keladi. Bu esa bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetentlikning samarali shakllanishiga xizmat qiladi. Qadriyatlarning asosiy mazmunini esa o‘zbek xalqining madaniy-tarixiy

tajribasi tashkil etadi. Shuning uchun ham qadriyatlarda millatning ma'naviy-madaniy boyliklari mujassamlashadi. Shuning uchun ham qadriyatlar bo'lajak o'qituvchi shaxsiy-kasbiy taraqqiyotini ta'minlovchi asosiy manbadir. Bo'lajak o'qituvchilar ularni o'rab turgan ijtimoiy muhitning ma'naviy qiyofasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadilar. Chunki talabalar har qanday jamiyatda uning ma'naviy – madaniy qiyofasini belgilovchi subyektlar sifatida namoyon bo'ladilar. Agar insonlar xulq atvorida salbiy jihatlar keskin namoyon bo'la boshlasa, qadriyatlar o'z ahamiyatini yo'qotadi. Natijada jamiyat a'zolari orasida ma'naviy buzilishlar, salbiy og'ishlar vujudga keladi. Shuning uchun ham ta'lim mazmunida qadriyatlarning tarixiy ildizlari va bugungi kundagi ijtimoiy-madaniy taraqqiyot uchun muhim bo'lgan asoslari o'z ifodasini topishi lozim.

Azal-azaldan tarbiya sharq xalqlarining ustuvor maqsadi hisoblangan. Shunga ko'ra har bir mamlakat, har bir hududda yosh avlod tarbiyasi umumxalq harakati, umummilliy ishga aylangan. Bu harakatning yetakchilari ham tashkilotchilari ham davlat boshliqlari, amirlar, mutafakkirlar hamda olim-u fuzalolar bo'lishgan. Mazkur jarayonda davlat va jamiyat o'z ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda yoshlarga pand nasihat qilib, zarur hayotiy bilimlar va o'gitlar bergan. Bu pand nasihatlar, o'gitlar va hikmatlarda bugungi kundagi ta'lim-tarbiya tizimining asosiy mazmun-mohiyati ifodalangan. Hikmatlarda bugungi kunda ta'lim-tarbiya tizimining asosiy mohiyatiga mos keladigan fikrlar ifodalangan. Shu bilan bir qatorda, mazkur o'git va hikmatlar uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlari uchun ahamiyatliligi bilan xarakterlidir. Mutafakkir shoir A.Navoiy odamiylik axloqi, insonparvarlik mezonlari haqida fikr yuritgan bo'lsa, shoh va shoir Bobur vatan sog'inchi, xalqning g'am tashvishini o'lmas satrlarda ifodalagan. Boburning "Boburnoma"si ruboiy va g'azallari vatanparvarlik tarbiyasining eng yaxshi namunalarini o'zida mujassamlashtirganligi bilan ham uzluksiz

ta'lim tizimi uchun alohida pedagogik ahamiyatga ega. Shoh Xusrav ham aqliy tarbiya haqida o'z qarashlarini bayon qilgan. Jumladan, "aqlli odam yovuzlikdan qochadi". Ajdodlarimiz aqliy tarbiyaga alohida e'tibor qaratganlar. Muhibiddin Arabiy, Jaloliddin Rumiy, Aziziddin Nasafiy, N.Kubro, Abduxoliq G'ijduvoni, Yusuf Hamadoni, Bahouddin Naqshbandlarning har biri aqliy hamda aqliy-ma'naviy tarbiyaga oid ulkan meros qoldirganlar. Shuning uchun ham ilm-u urfonni qadrlagan hukmdorlar ularga qo'l berib, murid bo'lganlar. Masalan, Amir Temur Sayyid Baraka, Bobur mirzo Xoja Ahror Valiydan, Jaloliddin Manguberdi esa Najmiddin Kubrodan aqliy-ma'naviy quvvat olgan. Anushervoni Odil (Eron shohi, 531-579-yillar) o'g'li Hurmuzga nasihat qilib, rivojlanayotgan har bir shaxs, shu jumladan, o'smir yoshdagi o'quvchilar saqlanishi lozim bo'lgan quyidagi illatlarni alohida ajratib ko'rsatadi: "Kerilish va o'zini katta tutish quyidagi illatlarni keltirib chiqaradi. 1. Mensimaslik xalq nafratiga yo'liqtiradi. 2. Odamlarni taftish va tadbiq qilib, o'zi kasb hunarga ega bo'lmaslik, odamga dashnom berish. 3. O'qishdan or qilib ilm adabdan bebahra qolish. 4. Jamoada o'zini barchadan ustun va dono tutish. Dushman orttirish va obro'yini to'kish. 5. Manmanlik tufayli chegaradan chiqish, baland amalga intilish natijasida xor-u zor bo'lish, o'z martabasidan ham ajralib qolish. 6. Odamlarning haq-huquqini hurmat qilmaslik, bemorlardan hol so'ramaslik. 7. Odamlarga xavf solish, ularni masxara qilish natijasida beqadr bo'lish. 8. Maslahatsiz ish tutish natijasida xijolat va nadomat chekish. 9. Odamlar meni ulug' deb biladi deb o'ylash va gumonda bo'lish. 10. Fozil va komil kishilarga quloq solmay, haqorat ko'zi bilan qarash natijasida el nazaridan qolish kabilar".

Mo'bad esa yoshlarga o'git sifatida quyidagi ikki narsaning afzalligini ko'rsatib o'tgan: "ikki narsa borki, ular bir-biridan yaxshidir. Hunar bilimdan

yaxshi, ish esa soʻzdan afzaldir” deb yoshlarni ilm-u hunar oʻrganish, bir soʻzli boʻlish, oʻzi aytgan soʻzning qadrini baland tutishga daʼvat etadi. Xurshid esa jahonda ikki narsaning barcha narsalardan afzalligini taʼkidlagan: “birinchisi xursandchilik, ikkinchisi beozorlik”. Davlat arbobi va ijodkor Buzurgmehr esa “boriga qanoat qilish, yetolmaydigan narsalariga intilmaslik, birovning qoʻlidagi narsaga tama bilan qaramaslik, xursandchilikka olib keladi” deya oʻgit bergan edi. Koʻrinib turibdiki, ajdodlarimiz kelgusi avlodlarga toʻgʻri yashash, tamagir boʻlmasdan, oʻz nafsini tiyib, hunar va bilim oʻrganishga intilish orqali farovonlik va xursandchilikka erishish shartlarini ham koʻrsatib oʻtganlar. Insonni maqsad sari eltuvchi yoʻl mutafakkir ajdodlarimiz taʼkidlaganlaridek, “donolar maslahati bilan ish koʻrish, oʻz vatanida boʻlish, odil boʻlish, sabrlilik, qaysarlik qilmaslik, foydasidan boshqalarni ham bahramand qilish, kamtarinlik” (Yunon donishmandi, “Donolar suhbatlari”).

Ajdodlarimiz yaxshi yashash qoidalarini ham koʻrsatib oʻtganlar. Ular “salomat boʻlish, xotirjam yashash, yaxshi nom qoldirish, abadiy yashashdir degan prinsipga amal qilib oʻz faoliyatlarini amalga oshirganlar” (Buzurgmehr, “Donolar suhbatlari”). Mutafakkir ajdodlarimizdan bugungi yosh avlod, ayniqsa, oʻquvchi va talaba yoshlar uchun alohida pedagogik ahamiyatga ega boʻlgan oʻgitlar qolgan. Jumladan, Anushervoni Odil mazkur oʻgitlar yosh avlodga yuksalish, buyuklikka intilish, aql idroki va bilimni yaxshilik yoʻlida sarflash yoʻlini koʻrsatib beradi. Ular Anushervoni Odil taʼkidlaganidek, ular “agar har kishini hayotning oʻzi mulla qilmasa, hech bir dono unga aql oʻrgatish uchun zahmat chekmasin, zahmati behuda ketadi”. Koʻrinib turibdiki, har bir inson uchun taʼlim tarbiya va ijtimoiy tajriba eng muhim vosita sifatida xizmat qilar ekan, “har kishining ilm-u boʻlsayu, lekin unga loyiq aqli boʻlmasa, bu ilmning unga hech qanday foydasi boʻlmaydi”. Demak, egallangan bilim aql bilan ishlatilganda samarali boʻladi.

O‘quvchilarni juda yoshlikdan boshlab, bir-birlari va davlatning sirini saqlashga o‘rgatish lozim. Shundagina ulardan sadoqatli do‘st, vatan fidoiysi yetishib chiqadi. “Agar siringning ochilishini xohlamasang, birovning sirini ham fosh qilma”. Chunki ikkinchi taraf ham birinchi tarafning harakatiga munosib javob qaytarishi aniq. “Siringni dushman bilmasin desang, do‘stingga ham aytna”. Mutafakkir ajdodlarimiz so‘zlash odobi bilan bir qatorda, sir saqlash odobining axloqiy mezonlarini yaratganlar. Bugungi kunda oilada ham jamiyatda ham shaxslararo munosabatlarning buzilishiga yoshlarda sir saqlash odobining yetishmasligi, birovning sirini bo‘rttirib, qo‘shib-chatib uchinchi odamga yetkazish odatlari sabab bo‘lmoqda. Bu tufayli kelib chiqadigan kelishmovchiliklarning aksariyati o‘quvchi va talabalar qizlar hamda pedagogik jamoa orasida kuzatilmoqda. “Agar odamlarning sevimlisi bo‘lishni istasang, ulardan hech narsani ayama” (Anushervoni Odil, “Donolar suhbatlari”). Saxiylik, jo‘mardlik, har bir shaxsning jamiyatda obro‘- e‘tiborga ega bo‘lishini ta‘minlaydi. Bunday sifatni o‘quvchi va talaba yoshlarda shakllantirishda tarixiy merosimiz muhim vosita vazifasini o‘taydi. Chunki, donishmand bobolarimiz o‘quvchilarning ong osti sohasiga tez ta‘sir ko‘rsatib, ularni oliyjanoblik ruhida tarbiyalaydigan bunday didaktik vositalarni ko‘plab yozib qoldirganlar. Ko‘rinib turibdiki, ajdodlarimiz qaysi sohada faoliyat ko‘rsatishlaridan qat’i nazar yosh avlod tarbiyasi ularning faoliyatida muhim o‘rin egallab, hayotining uzviy qismiga aylangan. Mutafakkir ajdodlarimiz hech qachon kechirilmaydigan gunohlarni ham ko‘rsatib o‘tib, yosh avlodni bunday gunoh ishlarni qilishdan saqlashga ota-onalar va ustoz murabbiylarni da‘vat qilganlar. “Mamlakatga qasd qilganlar millatning ayollariga ko‘z olaytirganlar, davlatning sirlarini fosh qilganlar, tili boshqa dili boshqalar” hech qachon kechirilmaydi. Ular davlat, millat va onalar nafratiga mahkumligi, tasavvuf ta‘limoti namoyondalarining didaktik hamda badiiy

asarlaridan keng o‘rin olgan. Mutafakkir ajdodlarimiz insonlarning faoliyat ko‘rsatishlari uchun uch narsa muhimligini alohida ta’kidlab o‘tganlar. Bular “ 1) har ishni avval chuqur o‘ylab, keyin hukm chiqarish; 2) har ishni yo‘lga soladigan yoki quvvatini qaytara oladigan chora-tadbirlarni ko‘rib qo‘yish” zarurligini uqtirganlar. Bu fikrlar alohida pedagogik ahamiyatga ega bo‘lib, yoshlarni mulohazali bo‘lishga, chuqur o‘ylab ish ko‘rishga da’vat etadi. Chunki bugungi kunda, ayniqsa, o‘smir yoshdagi o‘quvchilarda qiziqqonlik, shoshma-shosharlik bilan qaror qabul qilish, uning oqibatlarini aniq tasavvur qila olmaslik holatlari tez-tez uchrab turibdi. O‘qituvchilar ham ota-onalar ham o‘quvchilarning qarorlarini tahlil qilmasdan oqibatlarini tasavvur etmasdan turib qo‘llab-quvvatlamodalar. Buning natijasida ayrim ko‘ngilsizliklar ham uchramoqda. Bobokalonlarimiz “bu dunyo harakatdadir, tanglik va qashshoqlik ham bir holatda kutib turmaydi” deya insonlarni qiyinchiliklar oldida bukilmaslikka, tinmay harakat qilib, ularni mehnat va bardosh bilan yengib o‘tib, o‘z hayoti va moddiy ahvolini yaxshilashga undaganlar. Allomalar hadya odobi haqida qimmatli va ibratli fikrlarni bayon qilganlar. “So‘rab olgan odam, olgan narsasiga nisbatan ko‘proq yo‘qotadi. Haqiqiy marhamatli kishi so‘ramasdan beradi.” Darhaqiqat, nimanidir so‘rashga majbur bo‘lgan inson xijolat ostida o‘z g‘ururni yengib, u yoki bu narsaga ehtiyoji bo‘lganligi, ilojsiz qolganligi uchun so‘raydi. Bunday vaziyatda imkoniyati yuqori bo‘lgan kishilar ehtiyojmandliklardan xabardor bo‘lib, ularga ko‘mak qo‘lini cho‘zishi kerak. O‘quvchi hamda talaba yoshlarga ham hadya odobini shakllantirish maqsadga muvofiq.

Donishmand ajdodlarimiz kasbiy yuksalish etikasi haqida ham qimmatli fikrlarni bayon qilganlar. Ular kasbiy faoliyat jarayonida uch narsadan saqlangan odam martabaga erishishini ko‘rsatganlar. “1) yolg‘on so‘zlagan odam xor va beobro‘ bo‘ladi. Kimki yolg‘onchi bo‘lsa el nazdida beburddir. 2. Boshlig‘ining huzurida uni ta’rifu tavsif qilmaslik. 3)

g'iybatdan yiroq bo'lish". Bugungi kunda mansab kursisiga o'tirish, mo'may daromad topish uchun halol, yuqori malakalilarga bo'hton yog'dirib, ularni obro'sizlantirish lavozimga erishilayotganlarning ko'pi el nazaridan qolayotganligi bu fikrlarning qanchalik hayotiyligi, o'quvchi va talaba yoshlarda martabaga halol yo'l bilan, ilm egallash orqali erishish lozim ekanligini o'qitishga xizmat qiladi.

Donishmand faylasuf Arastu shunday deb yozgan edi: Odamlar yemoq uchun yashasalar men yashamoq uchun yeyman. Ushbu fikrlar ochko'zlik va molparastlikka berilmasdan o'z ehtiyojiga yarasha ozuqa g'amlash, tabiat in'om etgan ne'matlarni isrof qilmaslik, uning jamiyat a'zolari orasida teng taqsimlanisha imkon berish odobini o'quvchi yoshlarda shakllantirish lozimligini o'qituvchilar va ota onalar ongiga yetkazish zarurligini ko'rsatadi.

Beruniyning ta'biricha, inson faoliyatiga xos barcha kamchiliklar, illatlarning asosini ilmsizlikda ko'rgan. Bilim egallash uchun har bir insonda qiziqishlar, motivlar, intilishlar bo'lishi, qulay pedagogik muhit yaratilishi zarurligini asoslashga muvaffaq bo'lgan. Bilimlarni tushungan holda o'zlashtirish, tadqiqotlarni amalga oshirishda halollik, xolislik prinsipiga amal qilish lozimligini ta'kidlaydi. U davlat va jamiyat taraqqiyotini ilm-ma'rifat rivoji bilan bog'lagan. Beruniy o'qitishning o'quvchi imkoniyatlariga mos bo'lishi, uni toliqtirmaydigan hajmda bilim berilishi lozimligini asoslashga erishgan. Buni uni quyidagi fikrlarida ham ko'rish mumkin: "Garchi biz ba'zi joylarda turli fanlarga o'tib (ya'ni asl mavzudan bir oz chekinib), bayonimizga aloqasi uzoq masalalarga kirishib ketsak ham, bu (hol) gapni cho'zish va ko'paytirish maqsadida emas, balki o'quvchini zeriktirmaslik uchundir. Chunki doimo bir xil narsaga qarayverish malollik va sabrsizlikka olib keladi. (O'quvchi) fandani fanga o'tib tursa, turli bog'larda yurganga o'xshaydi, birini ko'rib ulgurmay, boshqasi boshlanadi

va u kishi «Har bir yangi narsada lazzat bor» deyilganidek, ularni (ko‘rishga) qiziqadi va ko‘zdan kechirishni istaydi”.

Beruniy o‘z asarlarida badgumonlikni, odamlar orasida ig‘vo tarqatishni qoralagan. Insonlarni ezgu amallarni bajarishga, har bir yomon xulqning tub ildizini topib odamlarni da‘vat etgan. Yomonlikning tub manbalarni tamagirlik, ya’ni badnafslilik, o‘rinsiz g‘azablanish va ilmsizlikda ekanligi va ularga qarshi kurashish kerakligini, badnafslilik va g‘azab har qanday shaxsni noto‘g‘ri yo‘lga boshlashini qayta-qayta ta’kidlagan. Nafs insonni halokat sari etaklovchi dushman deb bilgan, Beruniy. Olim mazkur illatlar inson boshiga bitmas-tuganmas musibat kelishini aytib o‘tgan. Nafs tarbiyasiga berilgan kishi o‘zining insoniy qiyofasini yo‘qotib, “eb to‘ymas hayvon”ga aylanishini ta’kidlagan. U nafsga berilgan kishilarni yirtqich hayvonga, iblisga o‘xshatadi.

Olim rostgo‘ylik, haqiqatparvarlikni ulug‘lagan. Yoshlarni shu ruhda tarbiyalashni tavsiya qilgan. Yolg‘onchilikni qoralab, uni jamiyat a‘zolari orasidagi barqarorlikni barbod qiluvchi illat sifatida qoralaydi. U har qanday xabarni tekshirib ko‘rib, uning haqqoniyligiga ishonch hosil qilish zarurligini ta’kidlaydi. Beruniyning ta’biricha insonlarning maqsadlari, ularning xatti-harakatlarini belgilaydi. Yolg‘onchilik adolatsizlikka olib kelishini, u xiyonat bilan teng ekanligini qayta-qayta uqtiradi. Bosqinchilik, o‘g‘rilik, hiylakorlik, insonlar orasiga raxna soluvchi ularning munosabatlarini izdan chiqaruvchi ofat deb hisoblaydi.

Beruniy insonning ruhiy jarayonlari haqida ham qimmatli fikrlarni ilgari surgan. U sezgini qo‘zg‘atuvchilar vujudga keltirishini e’tirof etadi. Qo‘zg‘atuvchilarning yoqimli va zararli bo‘lgan sirlarini ochib bergan. U ko‘rish, sezish, hid bilish, ta’mmul sezish a‘zolarining ahamiyati haqida ham qimmatli fikrlarni ilgari surgan. Inson o‘zining ruhiy jarayonlari bilan boshqa barcha jonzotlardan farq qilinishini ta’kidlaydi.

Inson bilimlarni tizimli tarzda egallashlarida uning ruhiy jarayonlari, jumladan sezgilari alohida ahamiyatga ega ekanligini uqtirgan. U ta'lim-tarbiya birligiga ham e'tibor qaratgan. Inson axloqiy sifatlarni egallash natijasida barkamollikka erishishni ta'kidlaydi hamda bu axloqiy sifatlarni shaxs butun hayoti davomida bosqichma-bosqich egallab boradi degan g'oyani ilgari suradi.

Mutafakkir bobolarimiz nodonlik belgilarini ham ko'rsatib mazkur illatdan saqlanishga, muomala va so'zlash odobiga har doim har bir joyda rioya qilishga chaqirganlar. Jumladan "birov gapini tugatmasdan gapga aralashadigan kishidan ko'ra ortiqroq o'z nodonligini oshkor qiladigan odam bo'lmaydi. Sukut buyuk donolikdir." (Luqmoni hakim. Luqmoni Hakim hikmatlari). Xalq donishmandlari hamda mutafakkirlar Jaloliddin Rumiy, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband, Alisher Navoiylar yoshlarni muttasil ilm-u hunar o'rganishga da'vat qilib, bunga o'zlari ham amal qilganlar. "Hunar o'rganinglar oltin kumush safarda xatarli, hunarning o'zi qaynar buloq, tugamas davlatdir. Hunarsiz odam esa hamisha mashaqqat chekadi, tilanchilik qiladi." (Xalq donishmandlari) O'quvchi yoshlarni hunarga o'rgatish maqsadida Alisher Navoiyning "Yo'q hunari yolg'uz esa yuz kishi, qayda sonida yolg'uz kishi" hikmati ham alohida ahamiyatga ega.

Bugungi kunda ayrim dunyoqarashi tor ota onalar "qizlar hunar o'rganishi shart emas" degan fikrda qat'iy turadilar. Bunday kishilarning qiz farzandlari mustaqil hayotga qadam qo'ygach turli qiyinchiliklarga duch kelib, turmush sinovlari oldida chorasiz qolib hatto tilanchilik qilishga majbur bo'lmoqdalar. Pedagoglar, maktab psixologlari hamda mahalla faollari ota-onalarga tushuntirish ishlarini amalga oshirishlari, tizimli tarzda tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirishlari lozim.

Hadisi shariflar, mutafakkir ajdodlarimiz hamda tasavvuf namoyondalarining badiiy didaktik xarakterdagi asarlarida nafs tarbiyasiga

alohida e'tibor qaratilgan. Chunki barcha davrlarda nafs insonlarning eng katta dushmani, halokatga yetaklovchi salbiy omil bo'lgan. Shuning uchun ham tasavvuf ta'limoti namoyondalari nafsning turlarini farqlab, nafs tarbiyasining rivojlanish bosqichlarini ko'rsatganlar. Hadisi sharifda shunday deyilgan: "Eng katta dushmaning ikki kifting orasida joylashib olgan nafsingdir." Shunga mutanosib tarzda xalq donishmandlari: "nafs degan narsaga qancha iltifot qilsang adovatini shuncha oshiradi" degan dono fikrlarni ko'p marta takrorlaganlar. Har ikki holatda ham nafs insonni tubanlashtirishi, shuning uchun ham unga berilishdan ayniqsa, o'smir yoshdagi o'quvchilar va talabalarni saqlash, buning uchun bolalarni juda yoshlikdan boshlab nafsning tubanlashtiruvchi jihatlaridan xabardor etish ota onalar va o'qituvchilarning muhim vazifalardan biri ekanligi, nafsga berilish tufayli o'zini zulmatga mahkum etishi mumkinligini qayta qayta tushuntirishlari, darsliklar va o'quv kontentlari mazmunida ham nafs tarbiyasiga yo'naltirilgan o'quv materiallariga ko'proq o'rin ajratilishi lozim. Ma'lumki, nafs tarbiyasi, nafs tufayli kelib chiqadigan korrupsiya holatlariga qarshi kurashish bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Shuning uchun ham ota onalar ham o'qituvchilar, huquqshunoslar, mahalla faollari bilan davra suhbatlari, uchrashuvlar hamda boshqa tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishlari maqsadga muvofiq.

Luqmoni hakim shaxsda shakllangan ijobiy sifatlar qachon sinovdan o'tishini ko'rsatib o'tgan edi. "Chidam boshga kulfat tushganda, botirlik kurashda, do'stlik unga hojat tushganda bilinadi" (Luqmoni hakim hikmatlari). Shuning uchun ham ota onalar, o'qituvchilar, maktab psixologlari, sport murabbiylar o'quvchilarda ijobiy sifatlarni qay darajada shakllanganligini turli imitatsion vaziyatlarni yaratgan holda sinab ko'rishlari, bunday vaziyatlarga ko'proq o'smir yoshdagi va 10-11-sinf o'quvchilarni jalb etishlari kerak.

Shayx Sa'diy yoshlarga qarata: "Go'zal xulq atvoring, odobing bilan uni (dushmaningni uyaltir)" – deya da'vat qilish bilan o'quvchi hamda talaba yoshlarni namunali axloq egasi bo'lishga chaqiradi. Luqmoni Hakim esa mahmadonalikdan sukut afzalligi, ortiqcha so'zlash insonning o'ziga zarar yetkazishini, o'zidan keyingi avlodga nasihat qilib qoldirgan. "Ey o'g'il, odamlar so'zga ustomonliklar bilan maqtansalar, sen sukuting bilan maqtangin" u o'z fikrlarni davom ettirib quyidagilarni alohida ko'rsatib o'tgan. Har narsaning dalili bor, aqlining dalili fikr, fikrning dalili sukutdir". Ko'rinib turibdiki, donishmand bobomiz sukut aql, mulohazalilik bo'lish, insonlarga xos fazilat ekanligi, keraksiz so'zlarni gapirishdan saqlanish, donolik, hurfikrlilik mahsuli ekinliligini anglatishi lozimligi haqidagi g'oyani ilgari surgan. Arastu esa yoshlarga qarata quyidagilarni ta'kidlab o'tadi: "iloji boricha o'zingga dushman orttirma, biror kishi senga dushmanlik ko'rsata boshlasa, sen unga marhamat nazari bilan qara, dilnavoz bo'l, shu bilan u kishi do'stlaring qatoridan joy oladi. Do'stlaringni shafqat va marhamating bilan sarafroz qil, ular sendan ajralmay, samimiy do'stlaring bo'lib qoladilar. Yolg'onchi kishidan vafo kutma, to'g'ri so'z ko'nglingga qattiq va achchiq tegadi. Odam yaxshilik qilganga yaxshilik qiladi. Bir yaxshilikka o'n hissa yaxshilik qaytaradi. Kimning asli pok, sof, u odam elga manfaat yetkazadi". Ko'rinib turibdiki, o'quvchilar orasidagi turli ziddiyatlarni bartaraf etish, ular orasida o'zaro hamkorlikka asoslangan do'stona munosabatlarni kengaytirishda mazkur fikrlar alohida pedagogik ahamiyatga ega. Ma'lumki, Luqmoni Hakim fikr tarbiyasi, shaxs kamolotiga kirishish yo'llarini ko'rsatib juda katta pedagogik meros qoldirgan buyuk mutafakkir edi. Uning bola tarbiyasiga oid hikmatli so'zlari pedagogik merosi ota ona va farzandlar, ustoz shogird, jamiyat a'zolari orasidagi shaxslararo munosabatlarni tartibga soluvchi pedagogik mexanizm sifatida bugungi kunda yanada ko'proq tarbiyaviy ahamiyat kasb etmoqda. U fikr tarbiyasi haqida shunday yozgan

edi: “sukut buyuk oqillikdir”. Luqmoni Hakim tarbiyaga oid davom ettirib “bog‘bon yerni yumshatib bir daraxt ko‘chatini o‘tkazib, uning atrofini xashakdan, zararli yovvoyi o‘tlardan tozalab, kerak bo‘lgan vaqtda suv berib tursa, umuman yaxshi diqqat qilib tarbiyalasa tez vaqtda daraxt voyaga yetadi, unumli serhosil bo‘ladi. Bolani ham yoshligidan boshlab yaxshilab tarbiya qilsa, bola o‘ziga, ota onasiga baxt-saodat keltiradi, jamiyatning eng foydali a‘zosi bo‘lib yetishadi. Shuning uchun men yoshlar tarbiyasiga ko‘proq e‘tibor beraman.” Mutafakkirning ushbu so‘zlari ustoz murabbiylar va ota onalar hamda ilmiy pedagogik jamoatchilik uchun dasturul amal vazifasini o‘taydi. Shu ma’noda:

Har yigit qizga kerakdir ruhafshon tarbiyat,

Aylagay orzu umidlarni muhayyo tarbiyat” (Luqmoni Hakim)

Har bir xalq o‘zining milliy-madaniy dunyoqarashiga ega bo‘lib, bu dunyoqarash tarkibida xalqning ruhiyati, urf-odatlar uchun begona bo‘lgan milliy modellar singib ketolmaydi. Bunday modellar millatning ma’naviyatiga salbiy ko‘rsatadi. Shuning uchun ham ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchi hamda talaba yoshlarda madaniy dunyoqarashni shakllantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Mutafakkir ajdodlarimiz xalq turmush tarzining ajralmas qismi bo‘lgan madaniyatga o‘z munosabatlarini bildirganlar. Masalan Forobiy fikricha, har bir inson o‘z tabiatiga ko‘ra, «oliy darajadagi yetuklikka erishish uchun intiladi». Alisher Navoiy insonni ma’naviy kamolotga etaklovchi hodisa madaniyat ekanligini ta’kidlaydi. Ma’rifatparvar ajdodlarimizning barchasi jamiyat a’zolarini ilm-ma’rifat orqali madaniy jihatdan yuksaltirish mumkin degan xulosaga kelganlar.

Insonning axloq-odobi, muomala madaniyatini ko‘rsatadigan so‘zlarni saralab qo‘llash, ularning mazmun-mohiyatini chuqur anglash ko‘nikmalarini o‘quvchilarda tizimli tarzda shakllantirish nafaqat ona tili darslarining, balki

ta'lim jarayonining asosiy maqsadiga aylanishi kerak. Mazkur ko'nikmalar ona tili, adabiyot, tarbiya hamda tarix darslarida ajdodlarimiz tajribasining ajralmas qismi sifatida o'quvchilarga taqdim etilishi lozim. Chunki mutafakkir ajdodlarimiz so'zga zukkolik bilan munosabatda bo'lganlar va bu haqida qimmatli fikrlarini qoldirganlar. O'quvchi yoshlarda o'z fikrlarini noaniq bayon qilish, ilm o'rganish, so'z boyligini oshirishga yuzaki qarash, bu borada yalqovlik qilishdan orlanish tuyg'usini shakllantirish muhim pedagogik ahamiyatga ega. Chunki o'quvchilar sabr-toqat bilan so'z ma'nolarini o'rganishlari har bir so'zni chuqur tahlil qilishlari, tahlil-mutolaaga oid faoliyatni amalga oshirishga muntazam e'tibor qaratishlari alohida ahamiyatga ega. Zero nutq odobi va nutq madaniyatiga rioya qilish azal-azaldan o'zbek xalqining axloq-odobi ifodasi hisoblangan.

Nutq odobi xalq donishmandlari va mutafakkir ajdodlarimizning tafakkuri mahsuli nutq etiketi ifodasi hisoblangan. Ushbu madaniyatning asosiy ko'rinishlari etnopedagogik meros orqali bugun bizgacha yetib kelgan. Turli-tuman shevalarga xos bo'lgan so'zlar, fikrlar birinchi navbatda etnopedagogik qadriyat hisoblanadi. U inson nutqini boyitib tilning imkoniyatlarini kengaytiradi. Yozma obidalar, etnopedagogik vositalar til va nutq madaniyatining tashuvchilari hisoblanadi. Turli-tuman shakllarga ega bo'lgan etnopedagogik qadriyatlarda ajdodlarimiz nutqiga xos bo'lgan madaniyat o'z ifodasini topgan. Shu jumladan "Avesto", "Qadimgi xalqlardan qolgan yozma yodgorliklar" (Abu Rayhon Beruniy), "Fozil odamlar shahri" (Abu Nasr Forobiy), "Tib qonunlari" (Ibn Sino), "Devonu lug'otit turk" (Mahmud Qoshg'ariy), "Qutadg'u bilig" (Yusuf Xos Hojib), "Xibbatul ul-haqqoyiq" (Ahmad Yugnakiy), "Qobusnoma" (Kaykovus)da nutq va so'zlash odobi, muomala madaniyatiga oid ko'plab fikrlar bayon qilingan.

Mahmud Qoshg'ariy "Devonu lug'otit turk" asarida til va nutq odobiga oid fikrlarni keltirgan. Kaykovusning "Qobusnoma" asarida ham yoshlarni aniq, qisqa, lo'nda mazmunli so'zlashga da'vat etilgan. Tilga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish g'oyasi ilgari surilgan. Kaykovus quyidagi fikrlar orqali so'zning mavqeyiga yuksak baho bergan: "Barcha hunardin so'z hunari yaxshiroqdur, nedinkim, hamma maxluqotdin odam yaxshiroq yaraldi va o'zga jonivorlardin odam o'n daraja ziyodadur va bu o'n daraja odamning badanida hamisha bordur", "... tilingni yaxshi hunar bila o'rgatg'il va muloyim so'zdin boshqa narsani odat qilmag'il. Nedinkim, tilga har nechuk so'zni o'rgatsang, shuni aytur, so'zni o'z joyida ishlatg'il, so'z agar yaxshi bo'lsa, ammo noo'rin ishlatilsa, garchand u har nechuk yaxshi so'z bo'lsa ham yomon, nobop eshitilur"¹.

Mutafakkir ajdodlarimiz til boyliklarini o'zlashtirish uni o'z o'rnida qo'llay olish har bir inson uchun zarurligini qayta-qayta e'tirof etganlar. Alisher Navoiy ham til va nutq odobi haqida o'zining qimmatli fikrlarini qoldirishga muvaffaq bo'lgan. U til so'zining ko'plab ma'nolariga ega ekanligini ko'rsatib o'tgan. Jumladan:

1. Tilning o'zaro fikr almashinish muloqot vositasi ekanligi.
2. Tilning og'zaki yoki yozma matn ma'nosida qo'llanilishi.
3. Tilning nutqiy jarayon, aniq ifoda vositasi ekanligi.
4. Muayyan millat va elatning o'zaro aloqa almashinuv quroli ekanligi va hokazo.

Alisher Navoiy o'z asarlarida til va nutqning ijtimoiy-axloqiy vazifalarini ham belgilab bergan. Til birinchi navbatda muayyan millat vakillari va millatlararo aloqa vositasi ekanligini ko'rsatib bergan. Alisher Navoiy til va nutqning o'zaro munosabati, uning ijtimoiy-axloqiy funksiyalarini "Muhokamat ul-lug'atayn"da batafsil ochib bergan: "Va bu

¹ Kaykovus. Qobusnoma. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – 224 b. 33-b.

soʻzning tanavvui taaquldin nari va tasavvurdin tashqaridur. Agar mubolagʻasiz ijmol yuzidin qalam surulsa va ixtisor jonibidin raqam urulsa, yetmish ikki navʼ bila taqsim toparida xud hech soʻz yoʻqturki, yetmish ikki firqa kalomigʻa dalolat qilgʻay, ammo ulcha tafsiliydur”.

Buyuk mutafakkir nutq odobining ijobiy xarakterini taʼminlovchi jihatlari va omillarini ham koʻrsatib bergan, shuningdek nutq odobiga zid inson nutqini buzadigan jihatlarni ham ajratgan. Mutafakkir shoirning nutq odobiga oid qarashlari bugungi kunda ham oʻquvchi va talaba yoshlarda nutq madaniyatini shakllantirishda muhim koʻrsatma boʻlib xizmat qiladi. U “fasohat” soʻzini nutq madaniyati tushunchasini anglatuvchi, lutf sanʼatini esa nazokat bilan soʻzlash madaniyati ifodasi ekanligini taʼkidlagan.

Fasohat – gapga chechanlik, notiqlik; nutqning toʻgʻriligi. 1. Chiroyli va yoqimli soʻzlash qobiliyati, nutqning aniq va ravonligi. 2. Lisoniy xususiyat, nozik qirralar.

Lutf – muloyimlik, marhamat; odoblilik, yoqimlilik. 1. Iltifot, marhamat, olijanoblilik. 2. Soʻz yoki gapni bir necha maʼnoda ishlatishga asoslangan soʻz oʻyini; qochirim.

Alisher Navoiy asarlari lugʻatida ham fasohat soʻziga shoir qoʻllagan kontekstga muvofiq tarzda quyidagicha izoh berilgan: “Fasohat — soʻzning ochiq, ravshan, chiroyli va qoidalarga muvofiq boʻlishi”. Yuqoridagilardan koʻrinib turibdiki fasohat soʻziga beriladigan taʼriflar bir biridan farqlanadi. Biroq uning asosiy mohiyatini nutq madaniyati tushunchasi tashkil etadi.

Bugungi kunda oʻquvchi va talabalarning nutqini tahlil qiladigan boʻlsak nutq odobi madaniyatiga zid keladigan bir qator holatlarni kuzatishimiz mumkin. Koʻpgina yoshlar oʻz nutqlarini salbiy maʼno anglatuvchi soʻzlar, haqorat soʻzlar bilan buzmoqdalar. Mutafakkirlar va jadid maʼrifatparvarlari yoshlarga qarata oʻgit berib koʻzga tashlangan har qanday voqea-hodisalarni soʻzlash inson axloqiga xos ish emasligini

ta'kidlaganlar. Ular kerakli joyda kerakli so'zni gapirish lozimligini uqtirganlar. Uzoqdan uzoq gapirish, bir fikrni qayta-qayta takrorlash nutq madaniyati me'yorlariga zid hisoblanadi. Bunday odamlarni ezma, sergap kishilar deb atash tajribasi mavjud. Fikrni o'rnisiz takrorlayverish ham nutq me'yorlariga zid holat hisoblanadi. Mazkur holatni Alisher Navoiy quyidagicha ifodalaydi: "Bir deganni ikki demak xush emas, So'z chu takror topdi dilkash emas". Ma'lumki nutq odobi qoidalariga rioya qilgan inson yaxshi va dilkash suhbatdosh hisoblanadi. U o'z fikrlarini atrofdagilariga tez va oson yetkaza oladi.

Ajdodlarimiz nutq madaniyati sohasida juda katta meros qoldirganlar. Ushbu merosning asosini nutq odobi tashkil etadi. O'quvchi va talaba yoshlarda nutq odobi, muomala va muloqot madaniyatini shakllantirish ta'lim jarayonining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. O'quvchi yoshlarda va nutq madaniyatini shakllantirish uchun ularga so'z san'ati, notiqlik madaniyati hamda muloqot odobiga oid bilimlarni tizimli tarzda taqdim etish maqsadga muvofiq. Maktab ta'limida nutq odobi, muloqot madaniyatining asosini nutqiy, lingvistik hamda kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan filologik bilimlar tashkil etadi.

Ko'rinib turibdiki, mutafakkir ajdodlarimiz bundan bir necha yuz yilliklar oldin axloq-odob, tarbiya etiketining haqiqiy pedagogki modelini yaratganlar. Ushbu modelning tarbiyaviy ahamiyati bugungi kunda har qachongidan ortmoqda. Shuning uchun ham O'zbekiston davlati va jamiyatining yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularni barkamol shaxs sifatida tarbiyalash yo'nalishidagi ijtimoiy buyurtmasini amalga oshirish zaruriyati bilan bog'liq holda ushbu modeldan keng foydalanish e'tibor qaratmoqda.

OTA-ONALAR HAMDA USTOZ-MURABBIYLARGA TA'LIM-
TARBIYA JAROYONLARIDA QO'LLASHLARI UCHUN TAVSIYA
QILINADIGAN HADISLAR, HIKMATLAR HAMDA MUTAFAKKIR
AJDODLARIMIZNING PEDAGOGIK QARASHLARIDAN
NAMUNALAR

Jaloliddin Rumi hikmatlari

Hayotda muvaffaqiyatga erishish uchun uch
narsa kerak: diqqat, intizom va harakat.

Tilingdan oldin qalbingni tarbiya qil.
Chunki soʻz qalbdan kelib, tildan chiqadi.

Odob – beodobni har bir odobsizligiga sabr-
toqat qilishdir.


Qalb oynasining sof boʻlishi, xunukdan goʻzalni ajrata olishi uchun
kerak.

Sabr – insonni maqsadiga eng tez olib boradigan yoʻl koʻrsatuvchidir.

Yo asling kabi koʻrin yo koʻringaning kabi boʻl.

Aql qoʻydir, nafs boʻri, iymon esa choʻpon. Agar iymon kuchli
boʻlmasa, nafs aqlni yeydi.

Insonlardagi goʻzallik bu – yuzdir, yuzdagi goʻzallik esa – koʻzdir.
Ammo, insonni inson qilgan bu uning tilidan chiqadigan – soʻzdir.



Baxtli oila qurishning ikki sharti bordir: 1.Yaxshi turmush o'rtog'ini tanlay bilmoq. 2. Yaxshi turmush o'rtog'i bo'lmoq.

Oddiy fikrla, oddiy qabul qil va oddiy yasha! Chunki haqiqat ham juda oddiydir.

Donoga yondoshgil, qoch nodondan san,
Hatto u xavflidir dono dushmandan.

O'ylaring so'zlaringga, so'zlaring fe'lingga, fe'ling taqdiringga nuqs etadi. Go'zal o'yla, go'zal yasha.

Zavq va orzular zinapoyaga o'xshaydi. Zinalar o'tirib, dam olishga moslashmagan. Umrni shu zinalarda behuda o'tkazmaslik uchun g'ofillikdan tez uyg'ongan va hayotning mohiyatini to'g'ri anglab etgan odam naqadar baxtli!

Inson tabassumi bilan tarbiyasini, nimaga kulgani bilan saviyasini namoyon qiladi.

Aqlidan kelgan jafo nodondan kelgan vafodan yaxshidir.

Afzallik istasang, hech kimdan afzallik da'vo qilma, mum va malham bo'lu jarohat bo'lma! Birovdan senga yomonlik yetishini istamasang, yomon so'zli, -fikri buzuvchi, yomonlikni targ'ib qiluvchi bo'lma!

Dili va tili bir bo'lmagan inson yuz tilni bilsa ham tilsiz sanalgay.

Butun dunyoni qidirib, go‘zal xulqdan ko‘ra yaxshiroq layoqatni topmadim.

Siz haqingizda yomon gumonga boradigan kimsa sizni ko‘zi bilan tanibdi, qalbi bilan emas.

Go‘zal kunlar kelishini kutma. Unga tomon bormog‘ingni unutma.

Abu Nasr Farobiy pedagogik qarashlari

Davlatning vazifasi insonlarni baxt-saodatga olib borishdir. Bu esa ilm va yaxshi axloq yordamida qo‘lga kiritadi.

Tarbiya jarayoni tajribali pedagog, o‘qituvchi tomonidan tashkil etilishi muhim. Chunki har bir odam ham baxtni va narsa-hodisalarni o‘zicha bila olmaydi. Unga o‘qituvchi lozim.

Ta’lim – insonga o‘qitish, tushuntirish asosida nazariy bilim berish, tarbiya – muayyan hunarni egallash uchun zarur bo‘lgan axloq normalari va amaliy malakalarni o‘rgatishdir.

Ta’limda barcha fanlarning nazariy asoslari o‘rganilsa, tarbiyada ma’naviy-axloqiy qoidalar, odob me’yorlari o‘rganiladi, kasb-hunarga oid malakalar hosil qilinadi.

Abu Rayhon Beruniy saboqlari

O‘quvchiga bilim berishda:

- o‘quvchini zeriktirmaslik;
- bilim berishda bir xil narsani yoki bir xil fanni o‘rgatavermaslik;
- uzviylik, izchillik;
- tahlil qilish va taqqoslash;

- ma'lumdan noma'lumga, yaqindan uzoqqa, soddadan qiyinga qarab borish;

- takrorlash;

- yangi mavzularni qiziqarli, asosan, ko'rgazmali bayon etishga e'tibor berish lozim.

Inson o'z ehtirolariga hukmron, ularni o'zgartirishga qodir, o'z jon va tanini tarbiyalar ekan, salbiy jihatlarni maqtagulik narsalarga aylantirishga hamda asta-sekin, axloq haqidagi kitoblarda ko'rsatilgan usullar bilan illatlarni bartaraf etishga qodirdir.

Insonni kamolotga yetaklovchi xislatlardan yana biri olijanoblikdir.

Inson har tomonlama kamolga yetishi uchun u ilmi bo'lishi bilan birga, mehnatsevar va hunar egasi bo'lishi ham kerak.

Insonning kamolotga yetishida ilm-u ma'rifat, san'at va amaliyot asosiy o'rin tutadi, nasl-nasab, ijtimoiy muhit va ijtimoiy turmush qonuniyatlari ham katta ahamiyatga ega.

Abu Ali ibn Sino o'g'itlari

Odamlarning botiri mushkulotdan qo'rqmaydi. Kamolot hosil qilishdan bosh tortgan kishi odamlarning eng qo'rqog'idir. Zero, ma'rifatli kishi jasur, o'limdan ham qo'rqmaydigan, faqat haqiqatni bilish uchun harakat qiladigan bo'ladi.

Bilimsiz kishilar johil bo'ladi, ular haqiqatni bila olmaydilar.

Johillik — ilmga, nodonlik — zehn oʻtkirligiga, shafqatsizlik, takabburlik -adolatga, nafrat — muhabbatga qarama-qarshi illat hisoblanadi.

Johillik, nodonlik, shafqatsizlik, takabburlik, nafrat insonning kamolga yetishiga toʻsqinlik qiluvchi nuqsonlardir.

Insonning shakllanishida uning atrofini oʻrab olgan tashqi muhit, odamlar insonning atrof-olamni bilishigina emas, balki uning xulqiga yaxshi yoki yomon illatlar ham taʼsir etadi. Shuning uchun bolalarni tarbiyalashda ehtiyotkor boʻlish kerak, bola yomon odatlarga oʻrganmasligi uchun, uni yomon odamlardan, yomon muhitdan uzoqroq saqlash zarur.

Bolaga hali u tugʻilmasdan turib gʻamxoʻrlik qilish, goʻdakligidan boshlab tarbiyani boshlash lozim.

Yusuf Xos Hojib nasihatlar

Kishi ikki narsa bilan hayotda mangu qoladi: biri xushxulqlik boʻlsa, ikkinchisi — yaxshi soʻz.

Molu dunyoni qancha termagin u tugaydi, ozayadi. Yozilsachi, u qoladi, olamni kezadi.

Yaxshi qiliq oq sut bilan kirsam, oʻlim kelib tutmaguncha oʻzgarmaydi.

Kishilar orasida yetugi uyatli kishidir.

Yolgʻon kishining obroʻsini toʻkadi, ortiqcha hazil, behuda mazax beizzat qiladi.

Ibn Muborak hikmatlari

Haromdan topilgan bir dirhamni tark etish, yuz ming dirhamni sadaqa qilishdan afzal.

Kishi ilm o'rganayotgan pallada "Olim bo'ldim, endi bas" deb xulosa chiqargan chog'idan boshlab johildir.

Niyatga ko'ra qancha kichik ishlar ulug', qancha katta ishlar arziyas bo'ladi.

Kaykovus pandnomalari

Juvonmardlikning ustunlari quyidagilarda: jasurlik, mardlik, sabrmatonat, va'daga vafo qilmoq, poklik va pokzabon bo'lmoq, asirlarga ziyon yetkazmaslik, bechora kishilarga madad berib, yomonlarning yomonligini yaxshilardan yiroq tutish, rostgo'ylik, yaxshiga yomonlik qilmaslik, ziyon-zahmatdan saqlash, odamlarga ziyon-zahmat yetkazmaslik namoyon bo'ladi.

Juvonmardlik yo'lini tanlagan yoshlar ko'zni yomon nazardan, qo'lni yomon ishdan, tilni yomon so'zdan saqlashi lozim.

Uch narsani do'st va dushmanga ochiq tut: uy eshigini, sufra boshini, hamyonning bog'ichini.

Agar molsizlikdan qashshoq bo'lsang, aqldan boy bo'lmoqqa sa'y ko'rguzgilki, mol bila boy bo'lg'anda, aql bila boy bo'lg'on yaxshiroqdur, nedinkim aql bilan mol jam etsa bo'lar, ammo mol bila aql o'rganib bo'lmas. Bilg'il, aql bir moldurki, uni o'g'ri ololmas, u o'tda yonmas, suvga oqmas.

Agar kishi har qancha oliynasab va asilzoda bo'lsa-yu, ammo hunari bo'lmasa, u xaloyiqning izzat va hurmatidan noumid bo'lur. Ulug'lik aql va bilim biladur, nasl-nasab bila emas. Otni senga ota va onang qo'ymishlar, sen unga mag'rur bo'lmag'il. Ammo sen hunar bila bir nomga ega bo'lg'il.

Bozor xalqi bila bozori bo'lg'il. Tosh va tarozini rost qilg'il. O'z aqchang haqida ikki dil va ikki hamyon bo'lmag'il. Sheriklaringga xiyonat qilmag'il, har peshakim qilsang, unga hiyla qilmag'il va hamisha hamma ishingni birdek qilg'il. Agar moldor bo'lsang, muhtojga qarz bermoqni g'animat bilg'il.

Hushmand (aqlli) kishilar o'zlarining har bir ishlariga aniq vaqtni tayin etibdurlar. Ular kecha va kunduzning yigirma to'rt soatini o'z ishlariga taqsim qilibdurlar. Bir ishni yana bir ishdan farq etib, unga vaqt, had (chegara) va andoza (o'lchov) paydo qilibdurlar, toki ishlar bir-biriga aralashmag'ay.

Bahouddin Naqshband hikmatlari

Shamga o'xshagin, toki hammaga ravshanlik bag'ishla, o'zing esa qorong'ida bo'l.

Murshid tolibning o'tgan, hozirgi va kelajak kabi uch holidan boxabar bo'lishi kerak, shundagina uni tarbiya qila oladi.

Tolib amal qilishi zarur bo'lgan shartlardan biri shuki, u Haq taolo do'stlaridan biri bo'lgan do'st bilan hamsuhbat bo'lib, o'z holidan voqif bo'lishi zarur. Suhbat zamonini o'zining o'tmish zamoni bilan solishtirib

ko‘rsin, nuqsondan kamol sari kelayotganini o‘zida mushohada qilsa, bu azizning suhbatida mulozamatda bo‘lishni o‘zi uchun farzi ayn hisoblasin.

Ahmad Yugnakiy

Bilim bilan saodat yo‘li ochiladi, shunga ko‘ra, ilmli bo‘l, baxt yo‘lini izla.

So‘zingni bo‘sh qo‘yma, tilingni tiyib tur, erk berilgan til bir kun boshingga yetadi.

Muslihiddin Sa’diy

Harchand, o‘qibsan, bilimdonsan,
Agar amal qilmading, nodonsan. Ustiga kitob ortilgan eshak,
Na olim va na donodir beshak.

Olim aytganiga jon qulog‘ing tut mahkam,
O‘z so‘zi ishiga teng bo‘lmagan chog‘ida ham.
Maqtanchoq kishilarning gaplari erur bekor,
Uxlagan uxlaganni uyg‘otganmi biror dam?

Qobiliyat bo‘lsa aslida.
Tarbiyat unga qiladi asar.
Qancha urinma bo‘lmas sayqali,
Temir aslida bolmas javhar.

Kimga yoshligidan berilmas odob,
Ulg‘aygach bo‘ladi baxtsiz, dili g‘ash.
Ho‘l novda egilar qay xilda eggsang,
Quruqni to‘g‘rilar faqat o‘t-otash.

O‘z mehnatidan non yegan kishi,
Hotam minnatidan ozod yoz-qishi.

Alisher Navoiy ibratlari

Alisher Navoiy bandalik vazifasini ado etgach, jamoat bilan suhbatlashar, hol-ahvol so‘rar, bemor va ehtiyojmandlarning ko‘nglini ko‘tarar edi. Nimagadir bir kuni tarki odat qilib, qayergadir shoshilib borib keldilar. Bu holga odatlanmagan jamoa qiziqib so‘raganlarida hazrat Navoiy shunday izoh berdilar:



“Ikki yelkamga salom berganda ko‘rdimki ustimda bir chumoli turibdi. Bu chumoli tahorat olganim joydan chiqqanini bildim va bir jonzotni oshyonidan judo qilmoqning gunohini, yukini o‘ylab uni o‘z joyiga qo‘yib keldim”.

Hattoki bir chumoliga ozor etkaza olmagan Navoiy shunday yozadi:

Kimki bir ko‘ngli buzuqning xotirin shod aylagay,

Oncha borkim, Ka’ba vayron bo‘lsa obod aylagay.

Ya’ni, kim ko‘ngli o‘ksik bir insonni xursand qilsa, yiqilgan Ka’bani qayta qurgan yoki ta’mirlagan kabi savobga sazovor bo‘ladi.

Ota-onaga hurmat mavzusi Navoiy hikmatlarining asosiy mavzularidandir. Shoir, farzand otasi uchun kerak bo‘lsa boshini, onasi uchun jismini fido etmog‘i, kunduzi nur sochganlari tufayli ularning birini oy, birini quyosh deb bilmog‘i lozimligini ta’kidlaydi:

Boshni fido ayla ato qoshig‘a,

Jismni qil sadqa ano boshig‘a.

Tun-kuningg‘a aylagali nur fosh,

Birisin oy angla, birisin quyosh.

Onalarning oyogʻi ostidadir,

Ravzai jannatu jinon bogʻi.

Ravza bogʻin visolin istar ersang,

Boʻl onaning oyogʻi tuprogʻi.

Haq yoʻlinda kim senga bir harf oʻqitmish ranj ila,

Aylamak boʻlmas ado oning haqin yuz ganj ila.

Har neki yetar sanga lison ogʻrigʻidin,

Bilgilki, qatiq durur sinon ogʻrigʻidin.

Aytur soʻzni ayt, aytmas soʻzdin qayt.

Chin soʻz moʻtabar, yaxshi soʻz muxtasar.

Soʻzni koʻngilda pishqirmaguncha tilga kelturma,

Va har nekim, koʻngilda bor – tilga surma.

Har kishining kim soʻzi yolgʻon esa,

Aylama bovar necha kim chin desa.

Befoyda soʻzni koʻp aytma,

Foydali soʻzni koʻp eshuturdin qaytma.

Chin soʻzni yolgʻongʻa chulgʻama,
Chin ayta olur tilni yolgʻongʻa bulgʻama.

Maʼdani inson gavhari soʻz durur,
Gulshani odam samari soʻz durur.

Tilga ixtiyorsiz, elga eʼtiborsiz.

Izzat tilasang, kam de,
Sihat tilasang, kam ye.

Bilmaganni soʻrab oʻrgangan olim,
Orlanib soʻramagan oʻziga zolim.

Oz-oz oʻrganib dono boʻlur,
Qatra-qatra yigʻilib daryo boʻlur.

Yigitlikda yigʻilmning maxzani,
Qarilik chogʻi xarj qilgʻil ani.

Sharqona hikmatlar

Bir maqsad tomon sekin-asta boʻlsa ham yurib borishing maqsadsiz yurganingdan afzal.

Insonning fazilati uning qoʻlida nimalar borligida emas, balki u nimalar bera olishidadir. Masalan, quyoshda olov bor, lekin uning fazilati butun koinotni nurga toʻldirib turishidadir.

O‘zingga munosib bo‘lmagan makonda yashamog‘ing qayg‘uli va alamlidir!

Senga dastlab yaxshi munosabat qilgan kishiga e’tibor berma, sen bilan oxirigacha yaxshi munosabatda qoladigan kishiga e’tibor ber!

Birovlarning musibati ustidan kulma! Kambag‘alning huzurida boyligingni gapirma! Bemorning huzurida sog‘ligingni gapirma! Kuchsizning huzurida kuchingni gapirma! Baxtsizning huzurida baxtingni gapirma! Mahbusning huzurida erkingni gapirma! Bepushtning huzurida farzandlaringni gapirma! Etimning huzurida otangni gapirma! Ularning musibatidan kulsang, alami ortadi. Johilliging bilan ularni tiriklay go‘rga tiqasan!

Bir hakim zotdan: “Ofiyat nima?” deb so‘rashgan edi, “Kunning gunohsiz o‘tishi” dedi.

Bir hakim zot aytdi: “Poyabzalsiz yurganimga yig‘lab yurgan edim, ikki oyog‘i yo‘q kishini ko‘rib, yig‘idan to‘xtadim. Har doim, har qanday holatda ham Allohga shukr degin”.

Do‘stlar shunday bo‘ladi: dastlab ko‘p bo‘ladi, so‘ngra kamayib, ozayib, nihoyat, yoningda faqat sodiqlarigina qoladi, xolos.

**II-BO‘LIM. JADID MA’RIFATPARVARLARINING SHAXS
TARBIYASIGA OID QARASHLARIDAN UZLUKSIZ TARBIYA
JARAYONIDA FOYDALANISH USULLARI**

*“O‘z zamonining ilg‘or namoyandalari bo‘lgan jadidlar g‘oyat murakkab va qiyin sharoitda bilim va ma‘rifat tarqatish, ta‘lim-tarbiya sohasini tubdan isloh etish orqali milliy taraqqiyotga erishish g‘oyasi bilan maydonga chiqdilar. Shu maqsadda o‘z mablag‘lari hisobidan maktab va teatrlar, nashriyot va kutubxonalar, gazeta va jurnallar tashkil qildilar, qobiliyatli yoshlarni chet ellarga o‘qishga yubordilar. Ularning bu olijanob tashabbus va harakatlari jamiyat hayotida kuchli aks sado berib, qudratli to‘lqinga aylandi. O‘ylaymanki, tarixda ikki buyuk Renessansga zamin bo‘lgan mintaqamizda uchinchi Renessansni aynan jadid ajdodlarimiz amalga oshirishlari mumkin edi. Afsuski, mustabid tuzum ularning ezgu g‘oya va amaliy harakatlarini to‘la ro‘yobga chiqarishga imkon bermadi. Biz bugun mamlakatimizda erkin fuqarolik jamiyati, huquqiy demokratik davlat barpo etar ekanmiz, jadid bobolarimizning gumanistik qarashlariga tayanamiz, ularning merosidan ma‘naviy kuch-quvvat olamiz!’”.*²

Sh.Mirziyoyev

Ma‘lumki, o‘zbek xalqini ziyoli, ma‘rifatli qilish mamlakatning qaddini ko‘tarish, uning taraqqiyoti va ravnaqi yo‘lida xizmat qilish jadid ma‘rifatparvarining eng ulug‘ maqsadi edi. Ushbu maqsadga ta‘lim-tarbiya tizimini rivojlantirish mamlakat yoshlari uchun dunyo eshiklarini ochish ularni jahonning ilg‘or mamlakatlarida tahsil olib ilm-fan yutuqlarini o‘rganib vatan taraqqiyoti yo‘lida ulardan foydalanish jadidlarning eng katta orzusi edi. XIX-asrning ikkinchi yarmi XX asrning boshlarida turkiy xalqlar orasida yuzaga kelgan, ma‘rifat uchun kurashgan, o‘qish-o‘qitish ishlarini isloh qilish, diniy maktablarning dasturiga ayrim dunyoviy fanlarni kiritish, shuningdek, yangilikni targ‘ib qilishga intilgan siyosiy, ma‘rifiy harakat

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jadidlar merosini o‘rganishga bag‘ishlangan xalqaro konferensiya” ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigidan. 2023 yil 6-mart.

jadidlar harakati edi. Jadidchilik dastlab 19-asrning 80-yillarida Qrimda Ismoilbek Gasprinskiy rahbarligida Qrim tatarlari o'rtasida vujudga kelgan. Jadidchilik harakati namoyandalari dastlab o'zlarini taraqqiyparvarlar, keyinchalik esa jadidlar deb atashgan.

Jadidchilik o'z mohiyatiga ko'ra birinchi navbatda siyosiy harakat hisoblanadi. Jadidchilik harakati amalga oshirgan davrni mutaxassislar to'rtga bo'lganlar. Turkiston, Buxoro va Xiva hududida bu davrlar 1895-1905; 1906-16; 1917-20; 1921-29 yillarni o'z ichiga olgan.

Xalqning millat istiqbolini o'ylaydigan taraqqiyparvar insonlar uning barcha tabaqalari – hunarmand, dehqon, savdogar, mulkdor, ulamolar orasida mavjud edi. Ziyolilar dastlab chorizmga qarshi kurashni xalqni asriy qoloqlikdan uyg'otish siyosiy-ma'rifiy jabhadan boshlashga qaror qilganlar. Bu davrda Turkiston o'lkasi jadidchilik harakatining rivojlanishi uchun qulay bo'lgan.

Jadidchilikning poydevori, tamal toshi – usuli jadid maktabi edi. Zero, “yangi” ma'nosini beruvchi “jadid” istilohining kirib kelishining o'zi aynan yangi usuldagi maktablar bilan bog'liq. 1895-1910 yillar orasida Turkistonning Toshkent, Samarqand, Qo'qon kabi barcha yirik shaharlari va qishloqlari, Buxoro amirligi va xonliklarda o'nlab “usuli savtiya” maktablari ochilgan. 1903 yillardan jadid maktablari uchun maxsus darsliklar tuzila boshlandi, lekin bu ishlar g'oyat qiyin kechgan. Biroq mustabid hukumat va mahalliy mutaassiblarning qarshiligiga qaramay, jadidlarning sa'y-harakatlari bilan “usuli jadid”» maktablarining tarmog'i kengayib borgan. Chinakam ma'rifat o'chog'iga aylangan, madaniy tanazzuldan saqlanish va jamiyat ma'naviyatini mustahkamlashda katta ahamiyat kasb etgan yangi usul maktablarining soni 1917 yil boshlariga kelib 92 tani tashkil etgan edi.

Jadidlar orasidan yetuk olimlar, ma'rifatparvar-pedagoglar, sanoat va ziroatchilik sohalarining zamonaviy bilimdon mutaxassislari, madaniyat

arboblari etishib chiqib, yurtni obod va Vatanni mustaqil, yoshlarni bilimli bo'lishlarini orzu qilganlar va shu yo'lda fidoyilarcha kurashganlar. Jadidlarning Turkiston mustaqilligi uchun kurashida asosan quyidagi yo'nalishlar ustuvorlik qilgan: yangi usul maktablari tarmog'ini kengaytirish; qobiliyatli yoshlarni chet elga o'qishga yuborish; turli ma'rifiy jamiyatlar va teatr truppalari tuzish; gazeta va jurnallar chop ettirish, o'zbek xalqining ijtimoiy-siyosiy ongi va ma'rifiy darajasini rivojlantirish orqali Turkistonda milliy demokratik davlat qurish g'oyasini ilgari surganlar.

Turkistonda yangi usul maktablarini ochgan, ular uchun darsliklar yaratgan jadid ma'rifatparvarlari jumlasiga Mahmudxo'ja Behbudiy, Abduqodir Shukuriy (Shakuriy), Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Fitrat, Sadriddin Ayniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Isxoqxon Ibratlarni kiritish mumkin.

Jadidchilikning aksariyat vakillari yoshlarga diniy ta'lim bilan bir qatorda dunyoviy fanlarni o'qitish masalasiga e'tibor qaratish lozimligi haqidagi g'oyani ko'tarib chiqdilar. Ular musulmon maktablarining ta'lim usuli va dasturlarini isloh qilib, yangicha usuldagi maktablarni ochganlar. Jumladan, Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, A.Burhonov, A.Avloniy va boshqalar yangi usul maktablari uchun darsliklar yozib, nashr etishgan.

Mashhur qirg'iz adibi Chingiz Aytmatov o'tmish tariximiz va ajdodlarimizga taalluqli: "Qadim Gresiya Ovrupada sivilizatsiya o'chog'i sifatida qanday o'rin tutgan bo'lsa, O'zbekiston va o'zbek xalqi butun turkiy o'lkalar va turkiy xalqlar tarixida xuddi shunday o'rin egallagan" degan haqqoniy fikrni ilgari surgan edi. Darhaqiqat ushbu fikrning isbotini ajdodlarimizning pedagogik ta'limotlari va jadid mutafakkirlarining ma'rifiy didaktik qarashlarida ham yaqqol ko'rish mumkin. Ular ilgari surgan

taraqqiyparvar fikrlar ayniqsa bugungi kunda yosh avlod ta'lim tarbiyasi va ma'naviyatini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev jadid ma'rifatparvarlarining ta'lim tarbiyaga oid meroslaridan foydalanish ehtiyoji kuchayayotganligini davlat siyosati darajasida asoslab berdi. Jumladan: "O'z mohiyat e'tiboriga ko'ra noyob ijtimoiy-siyosiy fenomen bo'lgan jadidchilik g'oyasining shakllanishi va taraqqiyotiga doir dunyoning bir qator mamlakatlarida ko'plab tadqiqotlar yaratilgan bo'lsa-da, ushbu harakat namoyandalarining Markaziy Osiyo hududida milliy davlatchilik va mintaqaviy o'ziga xoslikni, fuqarolik jamiyatining rivojlanishiga qo'shgan ulkan hissasini konseptual va tizimli asosda atroflicha o'rganish dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, taraqqiyparvar ajdodlarimizning ilg'or g'oya va qarashlarini tadqiq etish va tizimlashtirish, Turkiston jadidlarining milliy davlatchilik rivojidagi o'rni va ta'sirini o'rganish, XX asrning birinchi choragida ular tomonidan barpo etilgan davlat tuzilmalarining qonunchilik bazasini tahlil qilish, dunyoviy, huquqiy va demokratik jamiyat qurishga qaratilgan faoliyatiga tarixiy baho berish, Yangi O'zbekiston va Uchinchi Renessansni bunyod etishda ushbu merosning mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilishi"ni ta'kidlaydi.

Jadidlarning ta'lim-tarbiya, odob-axloq haqidagi fikrlari, asosan qadimdan islom olamida qaror topgan qarashlar negizida shakllangan. Jadidlar ajdodlardan bolalar, umuman inson tarbiyasida musulmonlarga xos diyonatlilik, saxovatlik, xushaxloqlilik, xushmuomalalik, vatanparvarlik, fidoiylilik, mustaqil fikrlash layoqatiga egalik, so'z zukkoligi, mantiqiy hamda tanqidiy fikrlay olish singari muhim xislatlarni qabul qilganlar. Ayni zamonda ularning pedagogik qarashlarida yangi bir tushuncha paydo bo'lgan. Bu ta'lim-tarbiyada muhit, zamon, sharoitning o'rni to'g'risidagi qarashdir.

Jadidlar pedagogikasi ijtimoiy hayot, uning talablari, ehtiyojlarini hisobga olish bilan o'zlarigacha bo'lgan Sharq pedagogikasiga nisbatan bir qadam olg'a siljish bo'lgandi. Jadidlar barkamol inson – bu eng avvalo, zamonaviy insondir, zamonaviy inson esa, millat va Vatan manfaatini barcha narsadan ustun qo'yuvchi, ma'rifatli, diniy va zamonaviy ilm-fanlarni egallagan, xushaxloq, tarbiyali kishidir, deb ta'riflaganlar.

Jadidlarning ta'lim-tarbiya to'g'risidagi, umuman pedagogik qarashlari shu bilan xarakterliki, ular ajdodlarimizning bu boradagi qimmatli fikrlarini ilg'or zamonaviy qarashlar bilan uyg'unlashtirganlar. Shu bois ularning pedagogik qarashlari ijtimoiy zaminga asoslanganligi bilan hanuzgacha ahamiyatini saqlab kelmoqda. Yuqorida ta'kidlaganimizdek jadidlar milliy tiklanishni asosiy mexanizmi sifatida ta'lim tarbiya va pedagogik fikrlarni rivojlantirish masalasini ko'tarib chiqqanlar. Haqiqatan ham o'zbek xalqining buyuk tarixida bizlar ham, bizlardan keyingi avlodlarimiz ham, hatto chet ellarda ham hamisha qadrlaydigan buyuk ajdodlarimiz juda ko'p. Shulardan biri mamlakatimizdagi jadidchilik harakatining yetakchi namoyondasi Munavvarqori Abdurashidov (1878-1931) edi. U o'qituvchilar oilasida tug'ilib voyaga etganligi uchun ham ko'plab jadid maktablariga asos solgan, ular uchun darsliklar qo'llanmalar yozishga muvaffaq bo'lgan. U tom ma'nodagi millatparvar xalqchil pedagog edi. U eng avval taraqqiyotdan orqada qolgan xalq maorifini isloh qilish g'oyasini ilgari surgan.

Munavvarqori XIX-asrning 90-yillarida Ismoilbek Gaspirali tomonidan Qrimda joriy qilingan "usuli jadid" – "usuli savtiya" (tovush usuli)ga asoslangan yangi maktab ochishga intilgan. Ammo, unga chor ma'muriyati, rus ziyoli missionerlari, mahalliy musulmon mutaassiblari qarshilik qilganlar. Juda katta mehnat va sabr-bardosh berish evaziga Munavvarqori 23 yoshida o'z uyida 1901-yil Turkistonda birinchilar qatorida jadid maktabini ochishga muvaffaq bo'lgan. Bu maktabda ilk bor jadallashtirib o'qitish metodikasi

joriy qilinib, o‘quvchilar besh yil davomida o‘zlashtirishlari nazarda tutilgan o‘quv materiallarini jadallashtirgan tarzda olti oyda o‘zlashtirishga muvaffaq bo‘lganlar. O‘z mehnatidan to‘la ma’naviy qoniqish hosil qilgan va ilg‘or usulning natijalarini chuqur his etgan Munavvarqori o‘zining butun e’tiborini xalq farzandlariga ma’rifat tarqatishga qaratgan. Munavvar qori maktabida diniy va dunyoviy bilimlar o‘qitilgan.

Munavvarqori metodikasiga asoslangan jadid maktablari Samarqand, Buxoro, Xiva va Turkistondan tashqari shaharlarda ham ochilgan. Munavvar qori ikki yillik “Rushdiya” jadid maktabini ochib, hozirgi milliy dunyoviy o‘rta maxsus ta’limga asos soldi. Mazkur ta’lim muassasalari juda tez rivojlanib sobiq sovet yillarida ham samarali faoliyat ko‘rsatgan. Keyinchalik esa ushbu maktablari “Muxtoriyat maktabi” deb nomlanib, uning haqiqiy tashkilotchisi bo‘lgan Munavvar qori “xalq dushmani” deb e’lon qilingan. Bunga qadar uning maorif taraqqiyotiga qo‘shgan boshqa xizmatlari e’tirof etilib mahalliy sovet hukumatining 1923-yil 7-martdagi qaroriga ko‘ra, “Maorif qahramoni” unvoniga sazovor bo‘lgan edi. Munavvar qorining ikki bosqichli maktabi va boshqa jadid maktablarini ma’rifatga muhtoj xalq, ayniqsa, ilg‘or ruhdagi yangi zamonaviy va muruvvatli boylar qo‘llab-quvvatlagan.

Munavvar Qori jadid maktablari uchun dastur va darsliklar ham yaratgan. Uning “Adibi avval” — Alifbo darsligi (1907), “Adibi soniy” (1907) — O‘qish kitobi, “Er yuzi” (1908) — 3-4 sinflar uchun Geografiya darsligi, “Havoyiji diniya”, “Til saboqlari” (1925) darsliklari, “Tajvid” — Qur’oni karimni o‘qish qoidalari va “Sabzazor” adabiy to‘plami kabilar o‘sha davrda o‘quvchilarga ilm-ma’rifat, yozish, o‘qishga oid ko‘nikmalarni hosil qilishda alohida pedagogik ahamiyat kasb etgan. Yangi avlod tarbiyasi masalasi XX asr boshida chindan ham favqulodda ahamiyat kasb etdi. Bu boradagi muhim ishlardan biri darsliklar yaratish edi. Yangi maktablar uchun

tuzilgan alifbelar ro'yxatining boshida Saidrasul Aziziyning "Ustozi avval» bilan Munavvarqorining "Adibi avval"i turadi.

Jadid ma'rifatparvarlari tarbiyani ko'p aspektli hodisa sifatida talqin etishga muvaffaq bo'lganlar. Ular aqliy tarbiya, nafosat tarbiyasi, axloqiy tarbiya bilan bir qatorda fikr va nutq tarbiyasiga xam alohida e'tibor qaratganlar. Jumladan Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yohud axloq" asarida fikr tarbiyasining o'ziga xos jihatlari bayon etilgan. Ma'rifatparvarga ko'ra har bir inson o'zining ona tiliga, o'z xalqining madaniyatiga muhabbat ruhida tarbiyalanishi kerak. Abdulla Avloniy bu haqida quyidagi fikrlarni bayon qilgan: "Har bir millatning dunyoda borlig'in ko'rsatadurgon oynayi hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur". Shu ma'noda Abdulla Avloniy so'zga yuqori baho bergan. Ushbu o'rinda Avloniy Alisher Navoiyning "Xayratul Abror" asarida keltirilgan

"So'z guharig'a erur oncha sharaf-

Kim, bo'la olmas anga gavhar sadaf»³ degan fikrlarni mantiqiy jihatdan davom ettirgan. Chunki Alisher Navoiy so'zning qudratiga yuksak baho beruvchi ko'plab baytlar va hikmatlarning ijodkori edi. Abdulla Avloniy ham mutafakkirning qarashlarini davom ettirib umuminsoniy hamda milliy qadriyat sifatida so'zning imkoniyatlariga yuksak baho bergan, uning ma'nolariga e'tibor berib qo'llashga yoshlarni da'vat etgan: "so'z insonning daraja va kamolini ilm va fazlini o'lchab ko'rsatidurgon tarozidir. Aql sohiblari kishining dildagi fikr va niyatini, ilm va quvvatini, qadr va qimmatini so'zlagan so'zidan bilurlar". Chunki so'z insoning odob axloqi, qadr qimmatini, madaniyatini o'z nutqida ifodalashi uchun imkoniyat yaratadi. Abdulla Avloniy mantiqiy asosga ega bo'lmagan fikrlarni palama-partish ifodalovchi insonlarga qarata quyidagilarni ta'kidlab ko'rsatgan: "Agar so'z

³ Navoiy, Alisher. To'la asarlar to'plami. J.6. Hayrat ul abror. – T.: G'afur G'ulom, 2011 y. 12-b.

aql va hikmatga muvofiq bo‘lub, o‘ziga yoki eshituvchiga bir foyda chiqadurgon bo‘lmasa, asalari orasida g‘ung‘urlab yurgan qovoqari kabi quruq g‘ung‘urlamoq faqat bosh og‘rig‘idan boshqa bir narsa emasdur. Boshimizga keladurgan qattiq kulfatlarning ko‘pi yumshoq tilimizdan keladur. Shuning uchun: “Ko‘p o‘yla, oz so‘yla”, — demishlar”.⁴

Yirik ma’rifatparvar Abdulla Avloniy ta’lim-tarbiya sohasidagi amaliy harakatlari bilan emas, balki o‘quv tarbiya jarayoniga nisbatan nazariy yondashuvlarni bayon qilganligi bilan ham ulkan pedagogik meros qoldirgan. Uning, ayniqsa axloqiy tarbiya sohasidagi fikrlari bugungi kun uchun ham alohida qimmatga ega. Axloq insonga xos bo‘lgan xulqlar majmuidir. Xulq esa, ezgulik yoki razillikka yo‘naltirilgan harakatlarni o‘z ichiga oladi. Insonning harakatlari ezgu amallarni bajarish yoki atrofdagilarga yomonlik qilish razillikning ifodalanishidir. Axloq shaxsda o‘z-o‘zidan vujudga keladigan hodisa emas. Axloqning shakllanishi muayyan ijtimoiy pedagogik shart-sharoitlarga bog‘liq. Mazkur shart-sharoitlar dastlab oilada, keyinchalik esa ta’lim muassasasida yaratiladi. Bolalarga, ular hayotining ilk davrlaridan boshlab ezgu amallarni singdirish ota-onaning ijtimoiy burchlaridan hisoblanadi. Bolada ezgulikka yo‘naltirilgan sifatlarning shakllanishi uchun ota-ona qulay sharoit yaratadi. Ko‘rinib turibdiki, tarbiya bola shaxsining uzluksiz kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham taniqli ma’rifatparvar Abdulla Avloniyniing “Tarbiya “yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidur” degan konsepsiyasi shaxs tarbiyasining ijobiy yoki salbiy yo‘nalishga ega ekanligini ifodalaydi. Tarbiya uzluksiz davom etadigan pedagogik jarayon hisoblanadi. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, u shaklan ikki bosqichda amalga oshirilsa ham har ikkala bosqichda oila va ta’lim muassasasining bola tarbiyasiga oid

⁴ Avloniy, Abdulla. Tanlangan asarlar: 2 jildlik. 2-jild. Pandlar, ibratlar, Hikoyatlar, nabiylar hayoti, dramalar, maqolalar, sayohat xotiralari. – T.: «Ma’naviyat», 1998. – 304 b. 60-bet.

harakatlari integrativ xarakter kasb etishi kerak. Jadid ma'rifatparvarlari, shu jumladan Abdulla Avloniy ham tarbiyaning keng ko'lamli ijtimoiy-pedagogik hodisa ekanligini o'z vaqtida chuqur anglab yetganlar. Tarbiya faqatgina axloqiy tarbiyadan iborat emas. U birinchi navbatda badan va aql tarbiyasiga yo'naltirilishi lozim. Chunki bolaning harakatlari mukammal bo'lishi uchun uning salomatligi muhim hisoblanadi. Abdulla Avloniy bolalarning salomatligini muhofaza qilish zarurligini to'g'ri anglab yetgan holda quyidagi fikrlarni ta'kidlagan edi: "Badanning salomat, quvvatli bo'lmog'i insonga eng kerakli narsadur. Chunki o'qumoq, o'rganmoq va o'rgatmoq uchun insonga kuchlik, kasalsiz jasad lozimdur".⁵

Avloniy inson salomatligining falsafiy, psixologik, fiziologik jihatlariga ham e'tibor qaratgan. Shu o'rinda Avloniy insonning jismi bilan ruhi orasidagi aloqadorlik haqida fikr yuritgan. Badan tarbiyasi fikr tarbiyasining tarkibiy qismi ekanligini pedagogik-psixologik jihatdan asoslashga harakat qilgan. Bu haqida u shunday yozadi: "Jism ila ruh ikkisi bir choponning o'ng ila tersi kavidur. Agar jism tozalik ila ziynatlanmasa, yomon xulqlardan saqlanmasa, choponni ustini qo'yub, astarini yuvub, ovora bo'lmoq kavidurki, har vaqt ustidagi kiri ichiga uradur". Ko'rinib turibdiki, Abdulla Avloniy o'z fikrlarini hayotiy, jonli misollar yordamida asoslashga harakat qilgan.

O'quvchilarning fikrlash layoqatini rivojlantirish masalasi Abdulla Avloniy va uning zamondoshlari bo'lgan jadidlarning diqqat markazidagi dolzarb masalalaridan biri edi. Chunki ular eng katta xatolar, kechirib bo'lmas gunohlar fikrsizlik tufayli kelib chiqishini o'z vaqtida anglab yetganlar. Fikr tarbiyasi o'qituvchilar zimmasidagi muhim vazifalardan biri ekanligini qayta-qayta ta'kidlagan. Ma'rifatparvarga ko'ra:

⁵ Avloniy, Abdulla. Tanlangan asarlar: 2 jildlik. 2-jild. Pandlar, ibratlar, Hikoyatlar, nabiylar hayoti, dramalar, maqolalar, sayohat xotiralari. – T.: «Ma'naviyat», 1998. – 304 b. 38-bet

Fikr agar yaxshi tarbiyat topsa,
Xanjar, olmosdan bulur o'tkur.
Fikring oyinasi olursa zang,
Ruxi ravshan zamir o'lur benur.⁶

O'quvchilarning fikrlash salohiyatini rivojlantirish o'qituvchining fikrlash darajasi, o'quv materiallarining fikrlashga undash imkoniyati hamda ota-onalarning mustaqil fikrga ega ekanligi bilan bevosita bog'liq. Chunki fikr tarbiyasida o'qituvchi, ota-ona va o'quv materiallarining ahamiyati beqiyos hisoblanadi. Ajdodlarimiz buni bir necha ming yillar oldin anglab yetganlar. Ma'rifatparvar bobolarimiz esa Sharq mutafakkirlarning ushbu yo'nalishdagi qarashlarini rivojlantirishga muvaffaq bo'lganlar. Abdulla Avloniy o'quvchilarning fikrlash faoliyatini rivojlantirishga alohida yondashgan holda ushbu yo'nalishdagi qarashlarini bayon etgan. Ma'rifatparvar fikrning tiniq, barqaror bo'lishi, tizimli tarzda rivojlanishida ilm va axloqning o'rni muhimligini ta'kidlab ko'rsatgan. Bu haqida u shunday yozgan edi: "...fikrning quvvati, ziynati, kengligi muallimning tarbiyasiga bog'liqdur. Dars ila tarbiya orasida bir oz farq bor bo'lsa kam, ikkisi bir-biridan ayilmaydurgan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kavidur".⁷

Abdulla Avloniy fikr tarbiyasini o'quvchining o'quv hamda istiqboldagi ijtimoiy faoliyatida qanday o'rin tutishini ham ko'rsatib o'tgan. Fikr insonning barkamollikka erishishida asosiy mezon ekanligini ham nazariy, ham amaliy jihatdan ko'rsatib bergan. O'quvchilar bilimlarni chuqur egallashlari uchun muayyan qobiliyat va layoqatga ega bo'lishi talab

⁶ O'sha asar 40-bet.

⁷ O'sha asar 39-bet.

qilinishini ham ta'kidlagan. O'quvchilardagi fikrlash layoqati ularda, sinchkovlik, har bir narsaga ibrat nazari bilan qaray olish, g'ayratlilik, shijoatlilik kabi sifatlarning shakllanishiga asos bo'la oladi deb ta'kidlaydi buyuk ma'rifatparvar.

Zehnlik, ziyraklik, o'z fikrini ochiq, mustaqil bayon qila olish ham o'quvchilarning rivojlanishlari uchun yo'l ochadigan sifatlar ekanligini e'tirof etgan. U o'zining mazkur yo'nalishdagi fikrlarini quyidagi she'riy baytda mujassamlashtirgan:

Har kishining fikr, idrokin so'zi bildirgusi,

Pistai bemarz, agar lab ochsa, rasvo bo'lg'usi.⁸Avloniy bolalarning fikrlash faoliyatini rivojlantirishini ularning yoshligidan boshlash kerakligini tavsiya etadi. Har bir bolaning umri behuda o'tmasligi uchun ota-onalar va o'qituvchilar ularning fikrlash faoliyatini rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi. Mazkur yondashuv uning quyidagi baytlarida o'z ifodasini topgan: Idrok ila aqling-la ayur yaxshi yomonni,

Behudaga sarf etma shu qimmatli zamonni.

Sa'y et, jadal et, ilm-u fununa harakat qil,

Boq, nayladilar hikmat ila ushbu jahonni.⁹

Ma'rifatparvar olim o'quvchilarning zehni va idrokini quvvatlantirish uchun ularni o'qish va yozishni o'rganishga da'vat qilish bilan bir qatorda kitobxonlik orqali atrof-olam, jamiyat va tabiatdagi voqealarni anglashga undaydi. Avloniyning ko'rsatishicha ilm egallash qiyinchiliklar, mashaqqatlarga bardosh berib, tinmay izlanishni talab etadi. Ma'lumki vijdonli, vatanparvar yoshlarni yetishtirish bugungi kunda ta'lim tizimi oldiga qo'yilgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki vijdon insonni halollikka, poklikka, Vatanni sevishga, iymon-e'tiqodli bo'lishga da'vat

⁸ O'sha asar 60-bet.

⁹ O'sha asar 60-bet

qiluvchi kuch hisoblanadi. U aql va tafakkurning asosiy mezonidir. Bu esa vijdonning shaxs va jamiyat hayotida tutgan o'ri, uning mazmun-mohiyati va ahamiyatini to'g'ri va to'liq anglash imkonini beradi. Abdulla Avloniy vijdon tushunchasiga quyidagicha ta'rif bergan: "Vijdon deb ruhimizga, fikrimizga ta'sir qiladurgan hissiyot, ya'ni sezuv-tuymaqdan iborat ma'naviy quvvatni aytilur".¹⁰

Ma'rifatparvar jadidlarning pedagogik merosida muhim ahamiyatga ega bo'lgan nuqtalaridan yana biri vatanparvarlik tarbiyasidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev jadidlar merosiga katta baho berib, ushbu merosning vatanparvarlik tarbiyasida muhim o'rin egallashini ta'kidlagan edi: "Ma'rifatparvar ajdodlarimizning merosi bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi tabiiy. Bu kimgadir yoqadimi yoki yo'qmi, xalqimiz jadid bobolarimiz ko'rsatib bergan yo'ldan og'ishmay borishi kerak. Chunki ularning g'oya va dasturlari Yangi O'zbekistonni barpo etish strategiyasi bilan har tomonlama uyg'un va hamohangdir". Ma'lumki barcha xalqlar uchun Vatan tuyg'usi muqaddas hisoblanadi. Hadisi shariflarda ham "Vatanni sevmok iymondandir" deya ta'kidlangan. Ma'rifatparvar Abdulla Avloniy Vatanni chindan sevgan inson uning taraqqiyoti uchun fidoiylilik ko'rsatishini ta'kidlab, shunday vatanparvar fidoyi yoshlarni tarbiyalash zarurligini ko'rsatgan. Avloniy har bir yoshni Vatan oldidagi burchni his qilishni zarur deb hisoblaydi. Buning uchun o'quvchi yoshlarga Vatan tabiati, xalqning urf-odati va an'analari, qadriyatlari haqidagi ma'lumotlarni taqdim etish, ularni ajdodlar merosi bilan yaqindan tanishtirish talab etiladi. Vatan muhabbati har qanday tuyg'udan ulug' hisoblanadi. Shuning uchun ham otalar va ustoz-murabbiylar o'quvchilar qalbiga Vatan muhabbatini joylash talab etiladi. Chunki Vatanga bo'lgan muhabbat uni himoya qilish, vatan

¹⁰ O'sha asar 58-bet.

sha'ni uchun kurashish, dushmanlariga zarba berish, boyliklarini qadrlash va avaylab asrashga undaydi. U Vatanga bo'lgan muhabbat haqida o'z munosabatlarini bildirib quyidagilarni yozadi: «Biz turkistonliklar o'z vatanimizni jonimizdan ortiq suydiramiz kabi, arablar Arabistonlarini, qumlik, issiq cho'llarini, eskimolar shimol taraflarini, eng sovuq qop va muzlik yerlarini boshqa yerlardan ziyoda suyarlar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi, tiriklik oson yerlarga uz vatanlarin tashlab hijrat qilurlar edi». ¹¹ Ushbu o'rinda o'z fikrini asoslashning turli yo'l va usullardan foydalangan. Inson qayerga bormasin, qayerda bo'lmasin Vatanga bo'lgan muhabbat uni ohangrabodek o'ziga tortadi. Bunga Avloniyning quyidagi misralari yaqqol misol bo'la oladi:

Vatan, vatan deya jonim tanimdan olsa ravon,
Bango na g'am qolur, avlodima o'y-u vatanim
G'ubor(g)a do'nsa tanim, yo'q vujudi zeri vahm
Charoki, o'z vatanim hokidur go'r-u kafanim.
Tug'ub usan yerim ushbu vatan vujudim xok,
O'lursa aslina roje' bulurmi man g'amnok. ¹²

Insonga xos bo'lgan turli-tuman fazilatlar mavjud, ularning eng asosiylari nomuslilik, vatanparvarlik, iymon-e'tiqod va vatan uchun fido bo'lish. O'quvchi va talaba yoshlarda bunday sifatlarni shakllantirishda jadid ma'rifatparvarlarning merosi, ayniqsa, Abdulla Avloniy o'gitlaridan foydalanish tarbiya jarayonining samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Buning uchun nafaqat pedagoglar, balki ota-onalar ham jadid ma'rifatparvar meroslaridan xabardor bo'lishi lozim. Ushbu merosni ommalashtirish ota-onalar va pedagoglar uchun mazkur merosdan foydalanishning qulay mexanizmlari va metodikalarini yaratish bugungi kunda alohida dolzarblik

¹¹ O'sha asar 55-bet.

¹² O'sha asar 56-bet.

kasb etmoqda. Buning uchun jadid ma'rifatparvarlarining «axloqiy tarbiyaga oid qarashlari», jadid ma'rifatparvarlarning «vatanparvarlikka oid yondashuvlari», jadidlarning «nafosat va aqliy tarbiyaga oid qarashlari», jadid ma'rifatparvarlarning «gigiyenik tarbiyaga oid tavsiyalari» kabi qo'llanmalar, tavsiyanomalar yaratib ota-onalar va ilmiy jamoatchilikka tavsiya etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Biz har bir bolaga ona zamin in'om etgan hamda xalqimizning fidokorona mehnati bilan yaratilgan moddiy-ma'naviy ne'matlarini qadrlash, ulardan rejali foydalanish ko'nikmasini ham shakllantira olishimiz kerak. Chunki vatanparvarlik bilan moddiy va ma'naviy ne'matlarni avaylab asrash tushunchasi o'zaro yaqin va bir birini taqozo qiladigan tushunchalardir.

Abdulla Avloniy yoshlarning moddiy ne'matlarni iqtisod qilishga o'rgatish Vatanni boy va qudratli qiladi degan g'oyani ilgari suradi. U bu haqida shunday yozgan edi:

Xalq ichinda mo'tabar bir narsa yuq davlat kabi,

Bo'lmagay davlat jahonda quvvatu sihat kabi.

Iqtisod, insof ziynatdur vujudi odama,

Yaxshi ne'mat yo'q kishiga sa'y ila g'ayrat kabi.¹³

Ko'rinib turibdiki, jadid ma'rifatparvarlardan bizgacha vatanparvarlik, xalqsevarlik, millatparvarlik, nafosat, axloq, aqliy va badan tarbiyasiga oid juda katta ma'naviy pedagogik meros yetib kelgan. Ushbu merosni o'rganish, ilmiy jihatdan tahlil qilish uning eng yaxshi jihatlaridan tarbiyaviy jarayonlarda foydalanish metodikalarini ishlab chiqish va pedagogik amaliyotga tatbiq etish, ota-onalarning jadid ma'rifatparvarlari ilgari surgan tarbiyaga oid g'oyalardan xabardorlik darajasini oshirish kabi vazifalar o'zining yechimini kutmoqda. Chunki mazkur muammolarning yechimi

¹³ O'sha asar, 63-bet

ta'lim-tarbiyaviy jarayonlar samaradorligini ta'minlashga asos bo'ladi. Oilada esa ota onalarning o'quvchilarda eng yaxshi axloqiy sifatlarni shakllantirish, ularni vatanparvar, fidoiy qilib tarbiyalash imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Avloniyning "Birinch muallim" asari ham o'zining muayyan o'rniga ega. Chunki "Birinch muallim" 1917-yilga qadar 4 marta nashr etilgan. "Ikkinchi muallim" esa "Birinch muallim" kitobining davomi bo'lib "O'qish" kitobi hisoblangan. U o'z ichiga axloqiy hikoyalar va she'rlarni qamrab olgan. Mazkur kitob o'z xarakteriga ko'ra darslik-majmua hisoblangan. Kitob maktablarning yuqori sinf o'quvchilari uchun darslik vazifasini o'tagan va axloqiy masalalarga qiziquvchilar, ayniqsa o'qituvchilar uchun qo'llanma bo'lgan. Chunki ushbu asarda yosh avlodni yaxshilikka undovchi yomonlikdan qaytaruvchi axloqiy tarbiya haqida fikr yuritilgan. Yoshlar tarbiyasi o'sha davrda yashab faoliyat ko'rsatgan barcha taraqqiyparvar jadidlar uchun ustuvor maqsad hisoblangan. Ular sirasiga Shakkoriy, Fitrat, Cho'lpon, Avaz O'tar, Bekajon Rahmon, Fayzulla Xo'jaev, Olimjon Qodiriy, Maryam Sultomurodova, Mo'minjon Muhammadjonov kabilarning pedagoglik va taraqqiyparvarlik faoliyati O'zbekiston milliy tiklanishiga asos bo'lgan, shuning uchun ham yosh avlod ularning mazkur xizmatlarini hech qachon unutmasligi qarashlaridan tarbiyaviy jarayonlarini tashkil etishda samarali foydalanishini bugungi tarixiy jarayonlar yaqqol ko'rsatmoqda.

Taraqqiyparvar jadidlarning yirik namoyondalaridan biri Adburauf Fitrat edi. Aksariyat jadidlar kabi u ham o'zbek xalqining ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor qaratgan. Fitrat uning taxallusi bo'lib, asl ism Abdurauf Abdurahim o'g'li (1886, Buxoro – 1938,4,10, Toshkent), u yozuvchi, tarixchi, adabiyotshunos, tilshunos, san'atshunos va siyosatshunos hamda

pedagog olim, davlat va jamoat arbobi bo'lgan. Fitrat birinchi o'zbek professori (1926) bo'lib, Buxoroning Mir Arab madrasasida tahsil olgan.

O'tgan XX-asr boshlarida vujudga kelgan "Tarbiyayi atfol" jamiyati ko'magida 1909-1913-yillarda Istanbulda tahsil olgan va qizg'in ijod qilgan. Turkiyadan qaytgach, Buxoroda o'qituvchilik qilgan. "Yosh buxoroliklar" harakatida faol ishtirok etib uning bosh mafkurachisi, g'oyaviy yo'lboshchilaridan biriga aylangan. 1917 yil apreldan 1918 yil martigacha Samarqandda chiqib turgan "Hurriyat" gazetasiga muharrirlik qilgan. 1918-yilda Fitrat Toshkentga kelgan. Fitrat bu erda, asosan, ilmiy, ijodiy, ma'rifiy ishlar bilan ko'proq band bo'lgan. U bir qator darsliklar tuzgan, "Chig'atoy gurungi" nomli ijtimoiy-adabiy tashkilotda faol ishtirok etgan. 1921-yili Buxoroga taklif etilgan. U xalq xo'jaligining bir qator sohalarini yaxshilashda, ayniqsa, maorif sohasida sezilarli ishlarni amalga oshirgan. Uning tashabbusi bilan bir guruh iqtidorli yoshlar Istanbul, Berlin, Moskva kabi shaharlarga o'qishga yuborilgan. Buxoro maktablari uchun o'quv qurollari, darslik va qo'llanmalar nashr etish yo'lga qo'ygan. Fitrat 1921-1922 — yillarda bir qator yuqori lavozimlarda ishlab, o'zining davlat arbobi sifatidagi iste'dodini ko'rsata olgan. U 1923-1924 yillarda Moskva va Leningradda yashagan, Sharq tillari institutida ishlagan. Turk, arab, fors tillari va adabiyotidan yoshlarga dars bergan. Leningrad dorilfununi professorligiga saylangan. Fitrat ko'plab badiiy asarlar hamda ta'lim-tarbiyaga oid ilmiy risolalar, qo'llanma va darsliklar yozgan. U "Rahbari najot", "Oila", "O'quv" darsliklari, "Adabiyot qoidalari" kabi qo'llanmalarni asarlarni yozgan. Shu bilan bir qatorda ko'plab maqolalarning muallifi ham hisoblangan.

1930-yillarda u ilmiy-tadqiqot muassasalarida, shu jumladan 1930-1934 yillarida O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot institutining "O'zbek tili va adabiyoti" bo'limida faoliyat ko'rsatgan, o'qituvchilar

malakasini oshirish instituti va dorilfununda ishlagan. Fitrat jadid ma'rifatparvari, hurriyat va mustaqillik g'oyalarining targ'ibotchisi hamda ilmiy-pedagogik yo'nalishdagi asarlar muallifi sifatida o'zbek xalqiga juda katta ma'naviy pedagogik meros qoldirgan.

Pedagogika fanida Fitratning "Oila" asari alohida ahamiyatga ega. Ushbu asarning axloqiy tarbiya bo'limida bugungi kun uchun ham alohida pedagogik ahamiyatga ega bo'lgan fikrlar yuqorida ta'kidlanganidek axloqiy tarbiya o'sib kelayotgan yosh avlod uchun muhim ahamiyatga ega. Bolalarga gigiyenik va axloqiy tarbiya berishga alohida e'tibor qaratish lozim deb hisoblaydi Fitrat. Chunki bolalar aqlli kuch-quvvatga to'la bo'lishlari uchun aqliy hamda jismoniy tarbiya nihoyatda zarur. Fitratning ta'biricha "axloqiy tarbiya talab darajasida bo'lmasa u aqliy hamda jismoniy kuchini atrofdagilarning zarariga ishlatadi. Binobarin bolaning aqliy va jismoniy tarbiyasi samarasiz qolmasligi uchun farzandning axloqiy tarbiyasi bilan jiddiy shug'ullanib ko'p harakat qilish lozimligini uqtiradi".

Fitrat "axloqiy tarbiya odamni kamolga etkazadi" degan prinsipni ilgari surgan. Buning uchun bolani "shunday tarbiya qilish kerakki, fe'li va amali o'ziga ham, boshqalarga ham foydali va manfaat keltiradigan bo'lsin". Bu Fitrat yaratgan tarbiya konsepsiyasining asosini tashkil qilgan. Fitrat inson tomonidan bajariladigan amallar harakatini ikki guruhga ajratgan edi. Ular: ixtiyoriy va g'ayri ixtiyoriy harakatlar. Ixtiyoriy harakatlarning ayrimlari his tuyg'ularga tayanilgan holda amalga oshiriladi. Tabiiy amallar sirasiga kiradigan g'ayri ixtiyoriy harakatlar ham mavjudligini Fitrat o'zining tarbiya konsepsiyasida asoslashga muvaffaq bo'lgan. Inson tomondan ixtiyoriy tarzda bajariladigan xatti harakatlarni, ular o'zlarining fe'l atvori va iqtidoridan kelib chiqqan holda amalga oshiradilar. Inson ixtiyoriy harakatlarni bajarayotganda u keltirayotgan foyda hamda zararni ham tasavvur qila olishini Fitrat alohida ko'rsatib o'tgan. Har qanday ixtiyoriy

harakatning foydali va zararli jihatlarini insonning o'zi tomonidan tasavvur qilinadi.

Biz o'quvchilarni foydali amallarni bajarishga undashimiz lozim. Bu jarayonda Abdurauf Fitratning amallarga oid qarashlaridan keng ko'lamda foydalanish tavsiya etiladi. Fitrat insoning harakatlari besh holatning mahsuli ekanligini ta'kidlab o'tgan edi.

Biz o'quvchilarni foydali amallarni bajarishga undashimiz lozim. Bu jarayonda Abdurauf Fitratning amallarga oid qarashlaridan keng ko'lamda foydalanish tavsiya etiladi. Fitrat insoning harakatlari besh holatning mahsuli ekanligini ta'kidlab o'tgan edi.

1. Tasavvur.
2. Muhokama qilish.
3. Solishtirish.
4. Qaror.
5. Ijro.

Bunday harakatlarni ayniqsa o'smir yoshdagi bolalarda shakllantirish muhim pedagogik ahamiyatga ega.

O'quvchilarning fe'li va harakati o'zining aniq mazmun mohiyatiga ega bo'lishi uchun Fitrat ta'kidlanganidek, ruhning yuqoridagi beshta mavjud holatini tarbiyalash talab etiladi. Buning uchun quyidagilarni hisobga olish lozim: "Fe'llarning tamoyillari va tarbiyasi, baxt mayli, faoliyat mayli, izzat-nafs, aloqa mayli, boshqalarga mehr-muhabbat mayli, ibrat olib e'tiborda bo'lish mayli, bilish mayli, go'zallik moyillik, yaxshi fazilatlarga intilish, iroda va ixtiyor mustahkamligi". Ko'rinib turibdiki ish va amal birligiga

erishish uchun birinchi navbatda ijobiy mayllarni shakllantirish talab etiladi. Bu nafaqat o'qituvchilarning, balki ota-onalar tarbiyaviy faoliyatining ham asosiy yo'nalishlarini tashkil etilishi kerak.

Yosh avlodni o'tkir aql egasi va sog'lom bo'lishini ta'minlash uchun Fitrat bir qator fikrlarni ilgari surgan. U birinchi navbatda bola yetti yoshga maktabga kelishini ta'kidlagan holda har bir yoshda unga o'qituvchi va ota onalar e'tibor qaratishlari zarur bo'lgan jihatlarni ko'rsatadi.

Fitrat ajdodlarimizning fikrlariga tayangan holda ta'lim tarbiya jarayonida bolalarga cheklovlar qo'ymaslik, g'azablanmaslik, zulm o'tkazmaslik, qahr g'azabini ko'rsatmaslikni tavsiya qiladi. U o'z fikrlarini alloma ibn Xaldunning so'zlari bilan tasdiqlashga intiladi. «Ta'lim va tarbiya jarayonida siz bolaning harakatlarini qat'iy chegaralamang, ularga jahl va zulm qilmang. Qaysi shogird zulm va qahr bilan tarbiya topsa, xotirasi tarqoq bo'lib, shodligi va sururi yo'qoladi, xotira parishonligi va g'amgin qalbi tufayli bilim miyasiga ham kirmaydi. G'amgin, hafsalasiz odam, zaif, sust bo'ladi. O'z muallimidan zarar va jabr ko'rgan shogird yolg'onchi, riyokor, hiylagar va fikri buzuvchi bo'ladi. Chunki muallimidan qo'rqib, yuragida alanga qolmaydi. Natijada maktabdan qochadi. Xalos bo'lish uchun ming bahona topadi. Ba'zan maktabga kelsa ham o'qituvchi nazaridan o'zining yomonligini yashirish uchun ikkiyuzlamachilik qiladi. To'g'risini aytmasdan qilmishini yashirish uchun yolg'on ishlatadi. Borib-borib u yolg'oni, nayranglari, riyokorligi tabiatiga singib, bolani axloqiy fazilatlardan mahrum etadi. O'z ustozidan lat yegan, zulm ko'rgan shogird qo'rqqoq va jur'atsiz bo'ladi, mazlumlikka o'rganib, o'zini himoya qila olmaydi, odamning oliy fazilatlaridan biri bo'lgan himmat tayanchidan mahrum bo'ladi!» allomaning ushbu fikrlari bugungi kunda alohida ahamiyatga ega bo'lib, bo'lajak o'qituvchilar va maktab pedagoglari unga muntazam amal qilishlari talab etiladi.

Fitrat qizlar ta'lim-tarbiyasi haqida ham qimmatli fikrlarni bayon qilgan, u birinchilardan bo'lib mamlakatimizda qizlarga bilim berish ularga alohida yondashgan holda tarbiyalash zarurligini ta'kidlagan. Farzandlarni yaxshi xulq egasi qilib tarbiyalash an'anasiga Fitrat ham sodiq qolib mutafakkirlarni ushbu yo'nalishdagi fikrlarini boyitishga hissa qo'shdi. Fitratning tarbiya pedagogikasiga oid qarashlari davr sinovidan o'tib bugungi kun uchun ham alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Ko'rinib turibdiki, jadid ma'rifatparvarlaridan o'zbek xalqiga boy tarixiy-madaniy pedagogik meros qolgan. Mazkur merosni yoshlar ongiga yetkazish, ular vositasida o'qituvchilarning metodik mahoratini oshirish, ota-onalarning tarbiya pedagogikasiga oid bilimlarini boyitish, buning natijasida yosh avlodda o'zbek xalqining milliy mentalitetiga xos bo'lgan xatti-harakatlar, yurish-turish odobini shakllantirish, ularda Vatanparvarlik, fidoyilik, xalq erki va Vatan taraqqiyoti uchun kurashchanlik, mas'uliyatlilik, o'zlikni anglash, Milliy g'urur tuyg'ularini shakllantirish ilmiy pedagogik jamoatchilik oldida turgan umummilliy muhim vazifadir!

OTA-ONALAR HAMDA USTOZ-MURABBIYLARGA TA'LIM-TARBIYA JAROYONLARIDA QO'LLASHLARI UCHUN TAVSIYA QILINADIGAN JADID MA'RIFATPARVARLARINING PEDAGOGIK QARASHLARI VA G'OYALARIDAN NAMUNALAR

Abdulla Avloniyning tarbiyaga oid yo'llanmalari

Bugungi kunda jamiyatimiz yuzini qora qiluvchi pastkashlar, yomonlar, beboshlar, o'g'rilar, giyohvandlar, nashavandlar – kecha tarbiyasiga e'tibor berilmagan bolalardir!

Har kishi qilsa ilm uchun harakat,
Bersun Alloh aqlina barakat.

Maktab sizi inson qilur,
Maktab hayo ehson qilur.

Maktab g'ami vayron qilur,

G'ayrat qilub o'qing, o'g'lon!

Maktabdadur ilm-u kamol,

Maktabdadur husn-u jamol.

Maktabdadur milliy xayol,

G'ayrat qilub o'qing, o'g'lon!

Fikr agar yaxshi tarbiya topsa,

Xanjar, olmasdan bo'lur o'tkur.

Fikring oyinasi olursa zang,

Ruhi ravshan zamin o'lur benur.


Yaxshi birla yursa, har kim maqsudi hosil bo'lur,

Yursa nodonlar ila bir kun borib qotil bo'lur.

Kattalar qilgan nasihatni kichiklar olmasa,

Oqibat xulqi buzuq bir beadab johil bo'lur.

Ilm bir daryo ichi to'lmish dur-u gavhar bilan,



Qiymat-u qadrin qachon bilg'on oni johil yilon.

Agar bir kishi yoshligida nafs buzilib, tarbiyasiz, axloqsiz bo'lib o'sdimi, bunday kishilardan yaxshilik kutmoq, yerda turib yulduzlarga qo'l uzatmak kabidir.

Fikrning quvvati, ziynati, kengligi, pedagogning tarbiyasiga bog'liqdir.

Aql – insonlarning piri komili, murshidi yagonasidir, ruh-ishlovchi, aql boshlovchidir. ... insonni hayvonlardan so'z va aql ila ayirmishdir. Lekin inson aql va idroki soyasida o'ziga keladigan zarar va zulmlardan saqlanur. Yer yuzida hayvonlarni asir qilib, bo'ynidan boylab, iplarining uchini qo'llariga bergan insonlarning aqlidur.

Ilm insonlarning madori, hayoti, rahbari najotidir. Agar aqlingni qo'li nafsingni jilovini ushlasa, sani yomon yo'llarga kirmoqdan saqlar. Har narsa ko'p bo'lsa, bahosi arzon bo'lur, ammo aql esa ilm va tajriba soyasida qancha ko'paysa, shuncha qimmatbaho bo'lur.

Tarbiya-pedagogika, ya'ni bola tarbiyasining fani demakdir. Bolaning salomat va saodati uchun yaxshi tarbiya, tanni pok tutmoq, yosh vaqtida maslakni tuzatmoq, yaxshi xulqlarni o'rgatmoq tabiblardek kabi durki, tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilg'oni kabi tarbiyachi bolaning vujudidagi jahl markaziga "yaxshi xulq" degan davoni ichidan, "poklik" degan davoni ustidan berib katta qilmog'i lozimdir.

Tarbiyani tugʻilgan kundan boshlamoq, vujudimizni quvvatlantirmoq, axloqimizni kuchlantirmoq, zehnimizni rivojlantirmoq lozim.

Fikr agar yaxshi tarbiyat topsa,

Xanjar, olmosday boʻlur oʻtkir.

Eng yomon kishilar ilmga amal qilmaydigan kishilardir. Agar tarbiya qiluvchi muallim olim boʻlib amalsiz boʻlsa, bu shogirdlar axloqiga yomon taʼsir koʻrsatadi.

Moziyga qaytib ish koʻrish xayrlikdir.

Bargi daraxton sabz dar nazari hushyor,

Har varaqash tabiati roʻzgʻor.

Kerak tarbiyat yoshlikdan kerak,

Ulugʻ boʻlsa lozim kelur gʻam yemak.

Dangasalik har vaqt insonni xor qilur.

Olim kishilar har yerda aziz va hurmatlidurlar.


Dars ila tarbiya orasida bir oz farq bor boʻlsa ham, ikkisi bir-biridan ayrilmaydigan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabidir.

Gʻazabning avvali jinnilik, oxiri nadomatdir.

Abdurauf Fitrat oʻgʻitlari

Oila vazifalaridan biri avlodni tarbiyalashdan iboratdur.

Dunyoda izzat va saodat tolibi boʻlmagan birorta qavm yoʻq. Har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bogʻliq. Tinchlik va totuvlik esa shu millat oilalarining intizomiga tayanadi.



Har bir kishi barkamollik yoshiga yetgach, u oʻz saodati taʼmini uchun shu maydonga kirmasdan iloji yoʻqdir. Bu kurashda gʻolib chiqish uchun uch xil oʻlchov quroliga ega boʻlishi kerak: 1) salomatlik; 2) sogʻlom fikr (nuqsonsiz fikr, yaʼni yuqori isteʼdod); 3) axloqi sano (oliy darajali axloq, yaʼni axloqiy poklik).

Agar har bir ota oʻz farzandining badbaxt boʻlishini xohlamasa, uni bu maydonning gʻolibi qilib tayyorlashi kerak. Farzandingizni jismoniy, aqliy, ruhiy tomondan barkamollikka yetkazing va jamiyatning qabil aʼzosiga aylanishi uchun gʻamxoʻrlik qiling.

Bolalarni barkamol qilib yetkazish uchun uning tarbiyasiga faqat oilagina javobgar boʻlmasdan, butun qavm aʼzolari javobgardirlar, chunki

yoshlar har tomonlama barkamol inson bo‘lib tarbiyalansa, qavmning kelgusi taraqqiyotida katta ahamiyatga ega bo‘ladi.

Badan tarbiyasiga qadim zamonlardan boshlab katta ahamiyat berilgan. Insonning butun a‘zosi salomat va quvvatga ega bo‘lmasa, unda inson uzoq yashamaydi. Agar insonning tanasidagi a‘zolaridan biriga xalal tegsa, u kishi ishdan qo‘lini tortib, boshqalarning muhtojiga aylanadi. Bizning farzandlarimiz ilm olishlari bilan birga, ularning badan tarbiyasiga ham e‘tibor berish lozim.

Havo inson uchun ovqatdan ham muhimdir. Besh-olti soat ovqatsiz turish mumkin, bir daqiqa havosiz turish mumkin emas. Shuning uchun go‘daklarni hamma vaqt sof havoga, bog‘-chorbog‘larga olib chiqish lozimdir.

Ota-onalar va muallimlar bolalarni har kuni yuzlarini sovunlab yuvdirlsinlar, og‘iz va tishlarini tozalab yuvdirlsinlar, doimo liboslarini nazorat qilsinlar, mumkin qadar bolalarni chivin va pashshalar bo‘lmagan joylarga o‘tkazsinlar, chunki bu hasharotlar turli kasalliklarni tarqatuvchidirlar.



Mahmudxo‘ja Behbudiy

Har zamonni ilmi, hikmati va parvarishi boshqadir. Modomiki, har bola, ya‘ni har kimni zamoni, otasi zamonindan boshqa bo‘lsa va har otag‘a o‘z farzandini kelar zamon uchun va kelar zamong‘a muvofiq suvratda tarbiya va ta‘lim etmog‘i lozim

bo'lsa, biz na uchun kelar zamon emas, balki hozirgi va bu kungi zamon va soatimizdagi ilm va fanlarni bolalarimizg'a o'rgatmaymiz.

Zamon talablaridan kelib chiqib ish ko'rish.

Millat taqdiri va istiqbolini belgilovchi milliy kadrlarni yetishtirish.

Milliy biiqlikdan chiqib, dunyo miqyosida fikrlay oladigan, chet ellar bilan siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy munosabatlarda jahon andozalari darajasida ish yuritadigan millatga aylanish.

Is'hoqxon Ibrat

O'qingiz ilmi hikmat sizga bu ish katta ibratdur,
Agar ilm o'rganursiz barcha ishda sizga nusratdur.
Agar ilm o'lmasa, nodon umri barcha kulfatdadur.

Shakuriy

Ey muallim, maktabing taraqqiy topib, sernur bo'lsin, yaxshi noming toabad dunyoda mashhur bo'lsin. G'ayrat qil, toki biz olimu dono bo'laylik, axir, biz savtiya usulining sevguchilarimiz, tarbiyat qil, har kishining xotirini shod qil. Har fandan bizga o'rgat, biz bahramand bo'lib nodonlikni nari quvaylik. Garchi nodon kishilar senga ta'na-haqorat etsalar ham g'am yema. Albatta, dushmanlar sharmisor bo'lurlar!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi. – Toshkent: 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni. – Toshkent: 2020.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-noyabrda “O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PQ-4038-sonli Qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-mayda “Jadidlar merosi davlat muzeyini tashkil etish to’g’risida”gi PQ-201-sonli Qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-iyulda “Siyosiy qatag'on qurboni bo'lgan yurtdoshlarimiz hayoti va faoliyatini o'rganish, targ'ib etish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi ulkan ishlarni kengaytirish to’g’risida”gi PQ-270-sonli Qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-mayda “Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o'rganish va targ'ib qilish maqsadida yoshlar o'rtasida kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish to’g’risida”gi PQ-3721-son Qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyunda “Qori Niyoziy nomidagi tarbiya pedagogikasi milliy institutini tashkil etish to’g’risida”gi PQ-232-sonli Qarori.
7. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – 486-b.
8. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug', kelajagi farovon bo'ladi. – T.: “O'zbekiston” 2019. – 147-b.
9. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2-jild. Pandlar, ibratlar, hikoyatlar, nabiyar hayoti, dramalar, maqolalar, sayohat xotiralari. Toshkent. "Ma'naviyat" nashriyoti. 2009.

10. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent. "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti. 2004.

11. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. 1-jild. She'rlar, nasriy asarlar, dramalar.- T.: "Ma'naviyat", 2000.

12. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. 2-jild. Ilmiy asarlar.- T.: "Ma'naviyat", 2000.

13. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. 3-jild. Dramalar, maqolalar.- T.: "Ma'naviyat", 2003.

14. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. 4-jild. Darslik va o'quv qo'llanmalari, ilmiy maqola va tadqiqotlar.- T.: "Ma'naviyat", 2006.

15. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. 5-jild. Ilmiy risolalar.- T.: "Ma'naviyat", 2000.

16. Abu Nasr Farobiy. "Fozil odamlar shahri". – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2004.

17. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2021.

18. Ahmad Yugnakiy. Hibatu-l-haqoyiq. Tuzuvchi: Qosimjon Sodiqov. -Toshkent: "Akademnashr" nashriyoti. 2019-yil.

19. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub.-Toshkent. "Yoshlar nashriyot uyi". 2018-yil.

20 . Berdaq. Tanlangan asarlar. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 1998.

21. Dolimov U. Turkistonda jadid maktablari. — Toshkent.: Universitet, 2006.

22. Hashimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. II qism. – T.: "Alisher Navoiy" nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005.

23. Ibraimov X., Quronov M. Umumiy pedagogika (darslik). – T.: "Sahhof" 2023

24. Jaloliddin Rumi. Ichingdagi ichingdadir. – Toshkent: “Yangi asr avlodi” nashriyoti, 2016.

25. Karim, Bahodir. Avloniy ziyosi //“Til va adabiyot” jurnali, 2020-yil, 7-son.

26. Kaykovus. Qobusnoma. — Toshkent. "Yangi asr avlodi" nashriyoti. 2016-yil.

27. Nishonova S. Sharq uygʻonish davri pedagogik fikr taraqqiyotida barkamol inson tarbiyasi: Ped.fanl.dokt. ... diss. — T.: 1998. — 288 b.

28. Ochilov E. Donolar suhbat. Hikoyat va rivoyatlar olami. T.: “Oʻzbekiston” nashriyoti, 2019.

29. Pedagogik ensikolpediya. I jild / tuzuvchilar: jamoa. // Toshkent. “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2015.

30. Pedagogik ensikolpediya. II jild / tuzuvchilar: jamoa. // Toshkent. “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2015.

31. Pedagogik ensikolpediya. III jild / tuzuvchilar: jamoa. // Toshkent. “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2017.

32. Qambarov M. Pedagogika tarixi. Oʻquv qoʻllanma. – Toshkent: “Bayoz” 2022.

33. Qosimov B. Milliy uygʻonish.- Toshkent.: "Ma'naviyat", 2002

34. Qosimov B. Uygʻongan millat maʼrifati.- Toshkent.: "Ma'naviyat", 2011.

35. Quronov M. Oʻzbekiston umumtaʼlim maktablarida milliy tarbiyaning ilmiy-pedagogik asoslari: Ped.fan.dokt. ...dis. — T.: 1998. — 287 b.

36. Quronov M. Milliy tarbiya. – Toshkent.: “Maʼnaviyat” nashriyoti, 2007.

37. Quronov M., Daminov I., Bozorov O., Sh.Akromova. Milliy tarbiya va yoshlar. T.: “kamalak” nashriyoti, 2016.

38. Rizayev Sh. Jadid dramasi. — Toshkent.: Sharq, 1997.
39. Saidov U. Yevropa ma’rifatchiligi va Milliy uygʻonish.- Toshkent: Akademiya, 2004.
40. Sa’diy Sheroziy. Hikmatga to’la olam. — Toshkent: “Sharq” nashriyoti, 2007.
41. Safarova R.G., Jo’rayev R.H. Pedagogika ensiklopediya (2 jild) // T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2015. – 27-b.
42. Safarova R. Kognitiv pedagogikaga oid nazariy yondashuvlar // Science and innovation nashriyoti. T.: 2024.
43. Sobitaliyev M. 565 Luqmoni Hakim o‘gitlari va aforizmlar. T.: “Adabiyot uchqunlari” nashriyoti, 2017.
44. Uvatov U. Hadis ilmining sultoni. – Samarqand: Imom Buxoriy xalqaro markazi, 2009.
45. Yaxshiyev A. Avaz O‘tarning ma’rifiy-axloqiy qarashlari. Oyina.uz, 11.03.2022.
46. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. – Toshkent: “Cho‘lpon” nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2007.
47. Ziyodulla Muqimov. Amir Temur tuzuklari (tarixiy-huquqiy tadqiqot). Ikkinchi to‘ldirilgan nashri. – Samarqand: SamDU, 2008.
48. O‘rta asr sharq allomalari ensiklopediyasi. – Samarqand: Imom Buxoriy xalqaro markazi, 2016.
49. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi 1-2 t. (tuzuvchilar K.Hoshimov, S.Ochil. O‘qituvchi, 1995-2000).

R.G.SAFAROVA, N.R.MASHARIPOVA, N.CH.RUSTAMOV

**MILLIY TARBIYAMIZ XAZINASIDAN
DURDONALAR**

**Mutafakkirlar va jadid ma'rifatparvarlarining tarbiyaga oid qarashlaridan
pedagogik jarayonlarda foydalanishga oid tavsiyalar**

UO'K: 37.022

KBK: 74.00

S 14

R.G.SAFAROVA, N.R.MASHARIPOVA, N.CH.RUSTAMOV

MILLIY TARBIYAMIZ XAZINASIDAN DURDONALAR

**(Mutafakkirlar va jadid ma’rifatparvarlarining tarbiyaga oid
qarashlaridan pedagogik jarayonlarda foydalanishga oid tavsiyalar)**

Nashr etishda qatnashganlar:

B.Rustamov, G.Raxmatullayeva, Z.Xakimova.



“Science and innovation” MCHJ

Litsenziya №:285829 27.05.2024

Bosmaxonaga berildi: 20.09.2024. Bosishga ruxsat etildi: 23.09.2024.

Bichimi 60x84 1/8. Times New Roman garniturasida. Ofset bosma.

Shartli bosma taboq: 9.77. Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 45

Manzil: 100155, Toshkent shahri, Sergeli tumani, Quruvchi dahasi, 22/43.

www.scientists.uz, info@scientists.uz, +998901259654